savdolar qatnashchilariga personal kabinet tashkil etadi, unga ular tomonidan amalga oshirilgan bitishuvlar to‘g‘risidagi va boshqa zarur ma’lumotlarni yuboradi.

Buyurtmachi va yetkazib beruvchi maxsus axborot portalida ro‘yxatdan o‘tishda ular tomonidan ularning personal kabinetlariga kirish uchun foydalaniladigan individual login va parolni ko‘rsatadilar. Savdolarda qatnashish uchun akkreditatsiyadan o‘tgan buyurtmachilar e’lon joylashtirgunga qadar hisob-kitob-kliring palatasining ikkilamchi depozit hisob raqami doirasida o‘z shaxsiy hisob raqamlariga oldindan avans to‘lovlarini o‘tkazishlari shart. Avans to‘lovlarisiz buyurtmachilarning buyurtmanomalari joylashtirilmagan hisoblanadi va aktivlashtirilmaydi.

Buyurtmachi tomonidan to‘langan avans to‘lovlari elektron tizim tomonidan savdolar g‘olibi aniqlangunga qadar blokirovka qilinadi. Akkreditatsiyadan o‘tgan yetkazib beruvchilar savdolarda qatnashish uchun hisob-kitob-kliring palatasining ikkilamchi depozit hisob raqami doirasida o‘z shaxsiy hisob raqamlariga avans to‘lovlarini o‘tkazishlari shart. Yetkazib beruvchi tomonidan kiritilgan avans to‘lovi boshqa yetkazib beruvchi tomonidan kam narx ko‘rsatilgan taklif berilgunga qadar blokirovka qilinadi. Savdolar g‘olibining moliyaviy zakalati u kontraktni imzolagunga qadar blokirovka qilinadi.

Mamlakatimizda davlat xaridining elektron tizimini ishlab chiqish hamda kichik biznes sohasini rivojlantirishda davlat xaridi mexanizmidan foydalanishga ustuvor yo‘nalishlar sifatida katta e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011- yil 7-fevraldagi 1475-sonli Qarori dasturil amal vazifasini bajardi. Ushbu qarorda belgilab berilgan vazifalarning ijrosini ta’minlash asnosida muhim natijalarga 61 erishildi. Chunonchi, so‘nggi yillarda O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasida davlat xaridlari bo‘yicha o‘tkazilgan elektron savdolar hajmi sezilarli darajada oshdi. Ushbu elektron savdolar jarayonida byudjet mablag‘larining ma’lum miqdorda iqtisod qilinishiga erishildi. Shuningdek, mazkur elektron savdolar kichik biznes subyektlarining asosiy bozorlaridan biriga aylanib, unda asosiy ulushga ega bo‘ldi. Bu borada yuqoridagi qaror bilan belgilab berilgan davlat xaridlarini amalga oshirishning kichik biznes sub'ektlari uchun ajratiladigan kvotalar o‘rnatilishini o‘z ichiga olgan yangi mexanizmi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi bilan davlat xaridi tizimining yangi bosqichi boshlandi. Ushbu

qonunda davlat xaridining shaffofligini ta’minlashga alohida urg‘u berilgan. Xususan, unda xarid qilish tartib-taomilini amalga oshirishda inson omilini yuqori darajada kamaytirish tamoyiliga amal qilingan. Mazkur qonun bilan davlat xaridining huquqiy va tashkiliy qismiga oid bo‘lgan yangi tushunchalar kiritildi, xarid qilish tartib-taomillari jarayoniga yangi talablar qo‘yildi, davlat xaridi sohasidagi monitoring va nazoratning yangi tartiblari joriy etildi va boshqa bir qator o‘zgarishlar amalga oshirildi. Qonunning hayotga izchil tatbiq qilinishi sog‘lom raqobat muhitini yanada rivojlantirish, tadbirkorlik sub’ektlari uchun davlat xaridlariga teng erkinlik yaratish, davlat sektorini maqbul muddatlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar) bilan samarali va oqilona ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda davlat xaridini samarali tashkil etishda Janubiy Koreya va Xitoy tajribalarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Zero davlatimiz hamda ushbu mamlakatlarning rivojlanish yo‘llari, aholisining mentalitetida o‘xshashliklar mavjud bo‘lib, bu o‘xshashliklar davlat xaridi tizimining ijobiy jihatlarini o‘zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, bu davlatlar bilan bugungi kunda mustahkam aloqalar yo‘lga qo‘yilmoqda.

Janubiy Koreyada davlat xaridi sohasidagi munosabatlar “Davlat shartnomalari to‘g‘risida”gi qonun, “Mahalliy hokimiyat organlari to‘g‘risida”gi qonun, “Davlat xaridi to‘g‘risida”gi qonun va boshqa bir qator qonun hujjatlari 62 bilan tartibga solinadi. Ushbu mamlaktda Davlat xaridlari xizmati (Public Procurement Service – PPS) davlat xaridi sohasidagi vakolatli organ hisoblanadi. PPS davlat xaridi sohasi bo‘yicha markaziy hukumat agentligi bo‘lib, mazkur idora mudofaa ehtiyojlari uchun xaridlardan tashqari davlat xaridi jarayonining barcha bosqichlarini muvofiqlashtirib turadi. 2002-yilda PPS barcha davlat xaridlari uchun yagona darcha vazifasini bajaruvchi Koreya onlayn elektron xarid tizimi – KONEPSni joriy qildi. KONEPS ta’minotchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish, tenderlarni tashkil etish, shartnoma tuzish va uning ijrosini nazorat qilish, shuningdek, yetkazib beruvchilar uchun to‘lovlarni o‘tkazib berish jarayoniga xizmat ko‘rsatadi.

Xitoy ham o‘ziga xos bo‘lgan davlat xaridi tizimiga ega. Bu mamlakatda davlat xaridi qonunchiligini asosan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun hamda “Tender to‘g‘risida”gi qonunlar shakllantiradi. “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun faqat markaziy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlarga nisbatan tatbiq qilinadi. “Tender to‘g‘risida”gi qonun esa davlat korxonalari, shuningdek, xususiy sektor investitsiyalari hisobiga moliyalashtiriladigan loyihalar doirasidagi munosabatlarni ham tartibga soladi. Bundan tashqari, mahalliy darajadagi hokimiyat organlari ham o‘z vakolatlari doirasida davlat xaridini amalga oshirishga

doir qoidalarni ishlab chiqishgan. Xitoy Xalqaro Savdo Tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Davlat xaridi bo‘yicha kelishuv” – GPA ga qo‘shilmagan. Ammo bu borada muzokaralar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda Respublikamizda davlat xaridini samarali tashkil etish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5120-sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tashkil etildi. Shuningdek, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Qabul qilingan qonun davlat xaridlari ochiqligini va shaffofligini hamda, bu sohada tadbirkorlarning raqobat kurashuvini ta’minlaydi hamda davlat byudjeti, markazlashtirilgan manbalar va davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalar mablag‘laridan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz davlat xaridlari tizimida olib borilayotgan islohotlar borgan sari ilg‘or xalqaro tajribalarga moslashtirishga qaratilmoqda. Buning natijalarai sifatida iqtisod qilingan mablag‘lar miqdori ortayotganligini ko‘rib chiqdik. Shunday bo‘lsada davlat xaridlari tizimida hal etilishi lozim bo‘lgan ko‘plab muammolar ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. У Ўроқов. Давлат харидлари тизими: кеча ва бугун.«Бозор, пул ва кредит» журнали. 2018
2. У Ўроқов. Ўзбекистонда давлат харидлари тизимини такомиллаштириш масалалари. 2014, 40-42
3. У Ўроқов, Э Шодмонов, Д Бобобекова. Давлат харидларини бошқариш. Т.-2022 й, 52-54
4. У Ўроқов. Давлат харидлари тизимида электрон харидлар ҳажмини ошириш масалалари. 2021, 60-61
5. Учқун Ўроқов, Улугбек Шарипжон Ўғли. Ҳадли келишув тартиб-таомили орқали давлат харидларини амалга ошириш тартиби. - Science and Education, 2023
6. У.Уроков, КР Чинкулов. Узбекистонда давлат харидларининг такомиллашувининг хукукий асослари.«Халкаро молия ва хисоб» журнали, 2017
7. Y. O‘roqov. Davlat xaridi. - O‘quv qo‘llanma. T.:«Nihol print» OK, 2022, 11-12

8. Uchqun Yunusovich O‘roqov, Odiljon Sheraliyevich Olimboyev. O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish masalalari. - Science and Education, 2022

9. Uchqun O‘roqov, Javohir Yomg‘irov. Davlat xaridlarini tashkil etish modellari: afzalliklari va kamchiliklari. - Science and Education, 2022

10. У Ўроқов. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. 2017. 30-31

11. У Ўроқов. Ғазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари. – 2017. 46-47

PEDAGOGIK MULOQOT

Mastura Mamashayeva Mamasoliyevna
Namangan davlat universiteti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Bu maqolada ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan pedagogik muloqoti haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: psixologik tadqiqotlar, pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, psixologik muhit, kommunikativ qobiliyat, muloqot texnikasi.

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогическое общение учителя с воспитанниками в учебно-воспитательном процессе.

Ключевые слова: психологические исследования, педагогическая деятельность, педагогическое общение, психологическая среда, коммуникативные способности, техника общения

Annotation: This article reflects on the pedagogical communication of the teacher with students in the educational process.

Keywords: psychological research, pedagogical activity, pedagogical communication, psychological environment, communicative skills, communication techniques.

Bizga ma’lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni hamma vaqt ham o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega bo‘lgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bizning ota-bobolarimiz ham azaldan farzand tarbiyasi va kamoliga katta e’tibor qaratishganini guvohi bo‘lamiz. Ularning bu boy va o‘lmas madaniyati va ma’naviyati biz uchun doim faxr hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan pedagogik muloqoti doimo asosiy o‘rin egallagan. Har bir pedagog o‘z faoliyati davomida u hohlaydimi, yuqmi o‘quvchilar bilan pedagogik muloqotga kirishishiga to‘g‘ri keladi. Muloqitni to‘g‘ri tashkillay bilish uning ne chog‘lik mahoratli ekanligidan dalolat beradi.

Olib borilgan pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning kattalar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lishi uning rivojlanishi uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu muloqot natijasida bolalar insoniyatning umumijtimoiy tajribasi bilan muloqotga kirishadi va shaxs sifatida shakllanib boradi. Ko‘p qirrali ta'lim-tarbiya jarayoni esa barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida o‘qituvchi hamda o‘quvchining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini vujudga keltiradi. Ushbu jarayonda o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilari bilan fikr almashadilar, bilim va

tajribalari bilan o‘rtoqlashadilar, bir so‘z bilan aytganda o‘zaro muloqotga kirishadilar. O‘qituvchining o‘quvchi bilan muloqotda bo‘lishi alohida san'atdir. o‘zining pedagogik faoliyati jarayonida o‘quvchilari bilan doimiy muloqotda va ushbu jarayonda turli hil muammolarga duch kelishi tabiiy. Ammo o‘zining kasbiy mahorati va muloqot madaniyati asosida bu muammolarni ijobiy hal etishi, jamoani o‘ziga qaratishi, ziddiyatlarning oldini olishi mumkin. Demak, pedagogik muloqot pedagogik faoliyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, pedagogik faoliyat qoidalarini, usul va vositalarini qo‘llaydi. Pedagogik faoliyat o‘qituvchining pedagogik muloqot madaniyatini talab etadi. Muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo‘lgan ehtiyoji bo‘lib, munosabatlar, o‘zaro ta'sirlar, ma'lumot hamda axborot almashishga doir ularning birgalikdagi faoliyatidir. Pedagogik muloqot – bu pedagogik faoliyatning asosiy kasbiy quroli bo‘lib, dars va darsdan tashqari jarayonlarda ijobiy psixologik muhitni yaratishga doir o‘qituvchining o‘quvchilari bilan urnatiladigan kasbiy muloqotidir. Pedagogik muloqot madaniyatining asosida esa o‘qituvchining umumiy pedagogik madaniyati yotadi. O‘qituvchining pedagogik madaniyati – bu uning hatti-harakati va faoliyatining o‘ziga xos stili, uning ijtimoiy va kasbiy sifatlari va kasbiy rivojlanganlik darajasidir. Muloqot o‘qituvchi shaxsining umumiy tavsifini – bilim, ko‘nikma va malakalarini, qobiliyatlarini, qadriyatlarini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi bilan o‘quvchining, o‘qituvchining boshqa o‘qituvchilar, ya'ni hamkasabalari bilan hamda butun jamoa bilan muloqotda bo‘lishi juda murakkab va ko‘pqirrali jarayondir. Pedagogik muloqotni tug‘ri tashkil eta olmaslik o‘qituvchida qo‘rqo‘v, o‘ziga bo‘lgan ishonchning, diqqatining susayishi, ishchanligining pasayishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarda bu o‘qituvchiga va uning faniga nisbatan negativ fikrni o‘yg‘otib, ularning ijodiy ishlashga bo‘lgan istagini, mustaqil fikrlash qobiliyatini susaytiradi. Pedagogik muloqotning to‘g‘ri tashkil etilmaganligi, o‘kituvchining pedagogik muloqot madaniyatining sustligi ba'zi hollarda psixologik travma va ijtimoiy normalardan og‘ish holatlarini ham vujudga keltiradi. Shunday ekan, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan kommunikativ muloqoti yuqoridagi kabi emosiyalarni uyg‘otmasligi, o‘quvchilarning darsga hursandchilik bilan kelishlari, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ijtimoiy-psixologik faollashtirishga erishmoq lozim, deb o‘ylayman. Muloqot kommunikasiya sifatida turlicha yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Jumladan: - kishilarning boshqa insonlarni bilishi; - verballi, ya'ni og‘zaki muloqot masalalari; - og‘zaki bo‘lmagan muloqot masalalari; - muloqotdagi kontakt masalalari; - muloqot jarayonida shaxsning hissiyotlari; - pedagogik muloqot jarayonida kommunikativ

qobiliyat masalalari; - munosabat, faoliyat va muloqotning o‘zaro bog‘liqligi; - shaxsni shakllantirishda muloqotning ahamiyati va boshqalar.

Shuningdek, muloqot masalalari psixologik jihatdan ham turlicha yo‘nalishda o‘rganilganligi bizga ma’lum. Ammo pedagogik nuqtai nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, faqatgina: - pedagogik etika, pedagogik takt va mahorat; - muloqot o‘zaro munosabat sifatida - muloqotning o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni va uning o‘ziga hos jihatlari kabi jihatlari o‘rganilgan. Ko‘rib turganingizdek, pedagogik muloqot masalasi pedagogik nuqtai nazardan yetarlicha o‘rganilmagan.

Shuning o‘zi ham muammoning nechog‘lik dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Demak muloqot, pedagogik muloqot, o‘qituvchining muloqot madaniyati masalalarini o‘qituvchi faoliyatining turli aspektlarida o‘rganish ijtimoiy zaruriyatdir.

Pedagogik muloqot ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi: - o‘quvchilarning individual hususiyatlarini yaxshi bilish; - axborot almashish; - faoliyat yuritish; -rollar almashish; - hamdard, hayrihoh bo‘lish; - o‘zini shaxs sifatida hamda o‘z kasbining mohir ustasi sifatida tan oldirish va boshqalar.

Muloqotning axborot almashish funksiyasini bajarishda o‘qituvchi ma'naviy qadriyatlar va o‘quv materiallari mazmuni bilan fikr almashtirib o‘quvchilar bilan hamkorlikda o‘quv tarbiyaviy jarayonga bo‘lgan motivasiyasini uyg‘otib, qiziqishlarini oshiradi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar ijtimoiy faoliyatga kirishadilar va o‘z rollarini bajaradilar. Ya'ni, o‘qituvchi o‘qituvchilik rolini, o‘quvchi esa o‘quvchilik rolini bajaradilar. Shuningdek, o‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyati jarayonida bilimdonligi va mahorati bilan «MEN»ligini qabul qilishi va tan olishiga zamin yaratishi lozim. Bu muloqotning tan oldirish funksiyasida hamdard bo‘lish, muloqotning asosiy funksiyalaridan biridir. Muloqotning ushbu funksiyasi o‘qituvchining o‘quvchilarni tushunishi, ularning fikrlarini inobatga olishini ta'minlab, jamoa o‘rtasia normal' munosabatni shakllantiradi. Muloqotning yuqoridagi funksiyalarini amalga oshirgan holdagina o‘qituvchi har bir o‘quvchini yaqindan bila oladi, ularning yuragiga yo‘l topib, o‘z faoliyatini samarali tashkil etadi. Ayniqsa, bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan muloqot funksiyalarini bilish yosh o‘qituvchilarning dars va darsdan tashqari jarayonlarda o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqotda bo‘lishini ta'minlaydi. Demak, o‘qituvchi har bir darsni rejalashtirar ekan, bunda o‘quvchilarga yangi bilimlarni berish, axborot almashishni emas, balki ularning qalbiga kirishni ham o‘ylashi lozim.

Tajribamdan kelib chiqqan holda shuni aytishim mumkinki, shunday o‘qituvchilar borki, ular yaxshigina bilimga ega bo‘lsalarda, o‘quvchi bilan

muloqotga kirisha olishi qiyin va natijada o‘z bilimini talabalarga yaxshi yetkaza bera olmaydi. Shuning uchun undan pedagogik muloqot texnikasini bilishi talab etiladi.

O‘qituvchi pedagogik muloqot texnikasini o‘zlashtirishi uchun muloqotning umumiy strukturasini bilib olishi lozim. Kasbiy-pedagogik muloqotning strukturasi quyidagilardan iboratdir: 1. Sinf bilan muloqotga kirishishni modellashtirish. Bunda muloqotning maqsadini belgilash, suhbatdoshlari – o‘quvchilar shaxsining individual jihatlarini, ularning bilim darajasini ko‘tarishi mumkin bo‘lgan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni inobatga olishdan iborat bo‘lib, bu prognostik bosqich vazifasini o‘taydi. Bu bosqich auditoriyaning o‘ziga xos jihatini bilishni talab etadi. 2. «Kommunikativ hujum». O‘z nomida ko‘rinib turganidek, bu bosqichda o‘qituvchi sinf o‘quvchilarini zudlik bilan ishga kirishishini ta'minlash texnikasini egallashi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarga dinamik ta'sir ko‘rsatib, ularning o‘zlarini boshqarishini amalga oshirishga doir usullardan foydalanishi lozim. O‘quvchilarni o‘quv materiallari ustida ishlashga safarbar etmog‘i lozim. Auditoriyaga kirgan o‘qituvchi: «Endi nimani gapirish kerak?»-degan savolga javob topishi kerak. 3. Pedagogik jarayonlarda muloqotni boshqarish. Bu bosqichda o‘quvchilarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash, dialog muloqotlarni amalga oshirish, mavjud vaziyatlardan kelib chiqqan holda, o‘z fikr va g‘oyalarini korrektlab, tuzatib borish lozim. 4. Olib borilgan muloqot jarayonini tahlil etish bo‘lib, muloqotdan ko‘zlangan maqsadning bajarilganlik darajalari sarhisob etiladi. Ushbu jarayonni quyidagicha tasvirlash mumkin: Auditoriyaga kirish : Nimani aytish kerak? Qanday aytish kerak?

Muloqot va munosabat inson – inson murojaati mahsulidir. Murojaatning turlariga qarab o‘qituvchida o‘quvchi bilan muloqotga kirishiga, ishlashga, so‘zlashuvga bo‘lgan ehtiyoj yoki undan qo‘rqish va qochish hollarini shakllantiradi. O‘qituvchining o‘quvchiga bo‘lgan munosabat madaniyati pedagogik jarayonlarda o‘z ta'sirini ko‘rsatadi. Darsda ijobiy psixologik muhitni yaratishning asosiy vositasi – bu pedagog bilan ta'lim oluvchilarning bir-biriga bo‘lgan ishonchi, hurmat-izzat asosida ko‘rilgan munosabati, o‘qituvchining nufuzi, uning o‘quvchilarni o‘z g‘oyalariga ishontira olishi, bolalarning xato-kamchiliklarini odob doirasida hal etishi, o‘quvchilarga o‘z bilimi va imkoniyatlarini namoyon etishga yo‘l ochib berishi, qo‘llab quvvatlashi, kommunikativ ehtiyojlarini inobatga olishidir. Ta'lim samaradorligini oshirish uchun o‘kituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatni o‘rnatish uchun optimal shart-sharoitlarni yaratish lozim. Agarda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat yaxshi yo‘lga qo‘yilmas ekan, ta'liming hech qanday usuli yaxshi samara bermaydi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ijobiy munosabatni shakllantirishda qo‘yidagi faktorlar muhimdir: 1. Sheriklik munosabat – bu ikki kishi

yoki ko‘pchilikning, ya'ni o‘qituvchi- o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchining o‘zaro muloqot (kontakt) ga kirishishidir. 2. Sheriklik asosida bir-birini yaxshi bilish. 3. Sherigining shaxsiy o‘ziga xos jihatlarini inobatga olish. 4. Xamkorlik qilishi. 5. Qarashlari va fikrlarining umumiyligi va o‘xshashligi. 6. Muloqotda o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi masofa (distansiya)ni saqlash muhim o‘rin tutadi, chunki o‘qituvchi –bu ustoz, o‘quvchi esa ta’lim oluvchi, ya’ni o‘rganuvchidir.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik muloqot pedagogik jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘qituvchining pedagogik faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. U o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatdir. Muloqotda o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va ko‘p yillik malakasi ham muhim o‘rin tutadi. Pedagogik muloqotda o‘qituvchi o‘quvchining shaxsiy fazilatlari va imkoniyatlariga ham e'tibor bergan holda muloqotga kirishishi yaxshi natija beradi. Agar sinfda 30 nafar o‘quvchi bo‘lsa, ularning har birining qiziqishi, imkoniyati va dunyoqarashi turlicha va shuning uchun ham, ular bilan muloqotga kirayotganda bularni inobatga olish muhim ahamiyatga ega. O‘zida pedagogik muloqotni yaxshi shakllantirgan pedagog o‘z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi, deb o‘ylayman.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.

2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.

3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

4. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009.

SPORTDA QOBILIYAT VA IQTIDORNI O‘RGANISHNING TIZIMLI YONDASHUVI

Nurali Munirov Alisherovich
Buxoro davlat universiteti sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti
E-mail: n.a.munirov@buxdu.uz

Annotatsiya: Sport qobiliyati va iqtidoriga bir butun sifatida qarash mumkin, uning xususiyatlari, avvalo uni tashkil qiluvchilarning ichki tabiatiga bog‘liq bo‘ladi. Bir butunning rivojlanishini, uning qismlarini o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’sirlaShuvi o‘rganish haqiqatni bilishni asosiy omilidir. Ushbu omil, biologik va ijtimoiy ob’ektlarni o‘rganishda majmuaviy yondashuvni ishlab chiqishda o‘z aksini topdi. Majmuaviy o‘rganish negizida yagona dastur bo‘yicha ishlaytgan va umumiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro muvofiqlashgan faoliyat olib boraytgan turli mutaxassislarning mehnati yotadi. Tadqiqotlarni tashkil qilishdagi bunday yondashuv, sport iqtidoriga ko‘plab o‘zaro bog‘langan elementlar tizimi sifatida qarashni taqozo etadi.

Sport iqtidorini ob’ekt sifatida majmuaviy o‘rganish tadqiqotlarda ob’ektni nazariy sezish shakllaridan birini – tizimlarning umumiy nazariyasini qo‘llash imkonini beradi.

Bir butunni o‘rganishni turli saviyalarda olib borish mumkin. Biz, sport iqtidorini o‘rganishni organizm saviyasida, uning qobiliyat va iqtidorni sportda boshqacha saviyada o‘rganilishini inkor etmagan holda, olib borishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Sport iqtidori tizimini quyidagi sxemada tasavvur qilish mumkin:

butun organizm – organlar tizimi – organlar – to‘qimalar – to‘qimalarning kataklari va to‘qimalarning katagi bo‘lmagan elementlari.

Tizimli yondashuv barcha jarayonlarni, hodisalarni, predmetlarni u yoki bu strukturaga ega tizimlar sifatida ko‘rish imkonini beradi. Demak, bir butunning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda struktura – butunning ichki shakli katta rol o‘ynaydi. Bunda, strukturani o‘rganish uning tarixiy jihatini: kelib chiqishi va rivojlanishini bilishni nazarda tutadi.

Asab tizimlarining turlari va sport jaraynidagi ahamiyati

Qobiliyatning barcha tuzilmalarining asosida, jumladan, sportda ham, tabiiy va biologik barqarorlikka ega bo‘lgan layoqatlar yotadi.

I.Pavlov, uning o‘quvchilari va izdoshlarining tadqiqotlari inson asab tizimining tipologik faoliyatini tabiat rivojlanish qonunlariga asoslanib o‘rgandilar.

Aniqlanishicha, har-xil asab tizimi xususiyatlariga ega bo‘lgan insonlarning xarakteri ham, xolati ham, rivojlanish xususiyati ham, malakasi, sifatlari ham turlicha bo‘ladi.

Inson asab tizimining asosiy tipologik xususiyatlari:

-kuchlilik-zaiflik kishi asab tizimiga ta’sir etuvchi xolatlarning kattakichikligini hisobga olgan holda chidamlilik darajasi;

-harakatchanlik, sustlik – kishi asab tizimining qo‘zg‘atuvchiga nisbatanta’sir qilishning tezligi;

-vazminlik, tezlik-asab jaraynidagi xususiyatlariga qo‘zg‘alish, tormozlanish va harakat kuchlari bo‘yicha munosabatining ochilishi;

Bu asab tizimlarini qo‘shilishidan quyidagi tur guruhlariga ajraladi:

-o‘ta vazmin tur – faoliyati bir tekisda o‘tadi, harakati charchoq tufayli kamdan-kam holda tushib ketadi;

-vazmin tur – bir tekisda kuch sarf qilinadigan ishlarni yaxshi bajaradi, davomiy va uslubiy zo‘riqishda yuqori chidamlilikka ega;

-qiziqqon tur – xarakterini o‘zgarib turishi, asablarini taranglaShuvi tufayli faoliyati tushib ketadi;

-zaif tur – ish faoliyati juda past, stress holatlarga sezgirligi baland;

Frantsuz tadqiqotchisi Morisning fikricha, har bir turdagi guruh aniq ish qobiliyatiga ega. Uning ko‘rsatkichlari bo‘yicha, kuchli va asabiy tur ko‘pgina kilogrammometr ishlab chiqaradi, uning ergogrammasi esa darhol pasayib ketadi bu esa, asab tizimidagi qarshilik kuchining kattaligiga guvohlik beradi. Kuchli lekin, asabiysiz tur ham kilogrammometr ishlab chiqishga qodir lekin, pasayib ketaytgan ergogramma qismi juda qisqa Shuning uchun, asab tizimi tez holdan toyadi. Asab turlari uzoq vaqt jismoniyishlarga chiday olmaydi lekin, ergogramma pastlashish bosqichiga qarshilik ko‘rsatishga katta kuch sarflaydi.

Har- xil tur guruhlaridagi sport qobiliyatlari

Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, asab sistemasining tipologik xususiyatlari akrobat va gimnastikachilarning murakkabkoordinatsiyalik harakatni bajarishga se’zilarlita’sir qiladi.

Kuchli harakatchan tip. Dinamik mashqlarni tez bajarishda yaxshi ish qobiliyatni ko‘rsatadi Shuningdek, mashg‘ulot oxirida mashqlarni bajarish sifati pasayib ketmaydi.

Zaif harakatchan tip. O‘zining chidamliligi bilan bitta mashqni 3-5 martagacha bajarish qobiliyati bilan ajralib turadi. Mashg‘ulot oxirida mashqlarnibajarish sezilarli pasayib ketadi va sportchi mashg‘ulotlarni tez tugatib qo‘yadi.

Kuchli inert tip. Sekin va statistik mashqlarni bajarishda ish qobiliyatini ko‘rsatadi. Faoliyatda o‘zining tez harakati, xolatini o‘zgarib turishi, tez charchab qolishi bilan farq qiladi.

Sportchining mashg‘ulotlarda vaqtidagi bajaradigan yuklamaning hajmiga qarab, ishga qobiliyatli deb xarakterlanadi.

Zaif inert tip. O‘zining ishga qobiliyati pastligi bilan farqlanadi. Odatda bundaylar 3 soatlik mashq mashg‘ulotlariga chiday olmaydilar.

Mashq bajarish sifati 3-4 marta qaytarilgandan keyin pasayib ketadi va keyingi mashg‘ulotlar natijasiz bo‘ladi.

Gimnastikachilar va akrobatlar o‘zlarining yuqori koordinatsiyaligi, ishga qobiliyatligi, xolati va tormozlanish jarayning yaxshiligi, bosiqligi, harakatning yaxshiligi, sifatlari bilan farqlanadi.

Bu natijalar L.Egunov o‘rganaytgan har-xil sport turlaridagi vakillarni asab tizimiining tipologik xususiyatlari bilan mos keladi. Muallifning ta’kidlashiga, kuchli asab tizimiga ega bo‘lgan sportchilar jismoniyvazifalarni yaxshi boshdan kechiradi, mashg‘ulotlarda esa rejashtirilgandan ham ko‘proq bajarishga harakat qiladi.

Asab tizimi zaif sportchilar ish qobiliyati pastligi, charchashdan shikoyat qilishi va mashg‘ulotlarga qatnashmasligi sababi bilan boshqalardan farq qiladilar.

Har-xil tipologiyadagi guruhlar vakillarining ish qobiliyati turli bo‘lishi bilan birga ularning murakkab sharoitlarda mashqlarni bajarishi, texnik harakatlarni egallashi bilan ham bir-biridan sezilarli daraja farq qiladi.

Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra gimnastika mashqlarini xarakterli xususiyatlarini o‘rganishda sportchilarning turli asab tizimlarini o‘rganish orqali aniqlashga imkon beradi.

Masalan: juda faol sportchilar o‘zlari kuchi etmagan mashqlarni olib, qo‘rqmasdan bajarishga harakat qiladilar. Bunday yangi sharoitlarga qo‘shilish ularda juda tez yuz beradi va harakat asoslarini tez o‘zlashtirib oladilar lekin, ko‘p xato qiladilar. Bunday gimnastikachilarda yangi elementlar qiziqish uyg‘otadi vaeskilarini o‘rganishni davom etirish ular uchun qiziq emas. Ular ishdagi muvaffaqiyatsizlikni ko‘tara olmaydilar.

Kam harakatli, initsiatorsiz sportchilar guruhi tormozlanish jarayniga ega. Ish vaqtida sportchilar harakatchan emas lekin, mashqlarni bajarishdan bosh tortmaydi.

Kuch talab qiladigan mashqlarda esa mashqni bajara olmaytganidan shikoyat qiladi va o‘z kuchiga ishonmaslik ular uchun xarkterli.

Yangi sharoit- reflekoriga o‘tish ularda juda sust, lekin mashqni o‘zlashtirib olgandan so‘ng ular umuman xato qilmaydilar.

Mutaxassislar ishga qobiliyati yaxshi, mehnatsevar sportchilarni asab tizim jarayni bosiq bo‘lgan kishilar kishilar deb hisoblaydilar.

Ular o‘zlarining yutuqlariga ham mag‘lubiyatlariga ham xotirjam qaraydilar. Bular tartibli, faol sportchilardir va sport bilan doim shug‘ullanadilar, unga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotmaydilar.

Kuzatishlardan shunday xulosa qilinadiki, o‘qish, harakatlarni yaxshi o‘rganish asab tizimining turiga bog‘liq.

Shuning uchun, gimnastikachilar tayyrlashda qaysi jaraynga tegishli ekanligini yosh sportchilarning asab tizimi orqali tekshirib ko‘rish kerak.

Melonxolik temperament vakillari o‘zlarining jur’atlari etishmaslidan ba’zida mashq bajarishda qo‘rqadilar va ma’lum vaqtgacha harakatlarni o‘rgatibborish kerak.

Bunday sportchilarni shug‘ullantirish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak:

asta-sekinlik bilan mashq bajarishni kuchaytirib borishi kerak;

harakatlari asta-sekin murakkablashtirish kerak;

ehtiyt choralarini ko‘rish va ijobiy rag‘batlashtirish kerak.

Xolerik - tempearamentli sportchilar o‘zlarini murakkab harakatlarni bajarishda, xavfli sharoitda tavakal qilish jasoratiga ega. Murabiy boshchiligida murakkabkoordinatsiyali harakatlarni bajarishda yutuqlarga erishadi.

Flegmatik - temperamentli sportchilar mashq bajarishda juda sust va tashvishli. Paydo bo‘lgan qiyinchiliklarni tez hal qila olmaydi va yangi mashqlarni bajarishdan bosh tortadi.

Sangvinik temperamentli sportchilar murakkab mashqlarni tez bajarib, murakkabkoordinatsiyali harakatlarni tez o‘zlashtirib oladilar.

Tadqiqotlar natijasi Shuni ko‘rsatadiki, sportchilar temperamentini bilish yuqori darajadagi yutuqlarni egallashda muhim rol o‘ynaydi. A.Puni qilichbozlikning individuval turlaydi:

Birinchi gruppa- kurashchi-analitiklar, ya’ni kam kurashib, ko‘proq o‘zlarini himoya qiladilar. Umumiy turlariga ko‘ra, ular kuchli, asab tizimi bosiq insonlar. Bular flegmatiklar va xaylparastlar turiga kiradi.

Ikkinchi gruppa- qiziqon, tez xayajonlanuvchilar bo‘lib, harakatlarni yetarlicha o‘ylamasdan bajaradilar. Asab tizimining turi tez, o‘zini ushlab turolmaydi. Bular xoleriklar va san’at sevarlardir.

Uchinchi gruppa- bosiq va irodali kishilar bo‘lib, jang vaqtida har bir harakatini o‘ylab bajaradilar va tez harakati bilan g‘alabaga erishadi. Umumiy turiga ko‘ra, kuchli, bosiq, asab tizimi harakatchan lekin, ularni sangvinnik deb bo‘lmaydi. Ularning asab tizimi aralashdir.

Temerament xususiyatlari bilan psixologik sifatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish, faqat kattalarda emas balki yosh sportchilarda ham kuzatiladi.

V.Kasyanov yosh sportchilarni asab tizimini individual xususiyatlarini aniqladi.

Hayajoni o‘rtacha harakatli o‘smirlar mashg‘ulot jaraynidagi turli mashq texnikalarini oson o‘zlashtirib oladilar. Harakatning har-xil vazifalarini aniq uddalay oladilar.

O‘zini ushlab qololmaydigan tipli o‘smirlar mashg‘ulotlardagi jismoniymashqlarni bajarishga tez ulgurmaydilar, lekin ularda tez harakatlanish malakasi yaxshi rivojlangan.

Ularni xulq-atvorini, emotsional reaktsiyani harakatini faoligiga qarab tartibsiz deb bo‘lmaydi.

O‘rtacha hayajonli o‘smirlarning asab tizimlari bosiq bo‘ladi va murakkab koordinatsiyali harakatlarni tez o‘zlashtirib oladilar. Biroq ularda shartli reflekslarining sekin xosil bo‘lish tufayli harakatlarni sekin bajarish kuzatiladi.

Past xayajonli, tormozlangan o‘smirlar harakati juda faol emas. SHartli refleks qiyin paydo bo‘ladi va sezilarli darajada pasayib ketadi. Harakatlarni qoniqarli holatda bajaradi.

Asab tizimlarining xususiyatlari har-xil bo‘lgan o‘smirlar mashqlarni turli harakat qobiliyatlari bilan egallaydilar va musobaqa jaraynini murakkabholatlarida bu qobiliyatlarni amalga oshiradilar.

Sportchining – muhit ta’sirida asab tizimlari qanchalik kuchli qo‘zg‘alsa, Shunchalik musobaqa davomida yaxshi natijalarni qo‘lga kiritadi. Agar ta’siri kam bo‘lsa, natija ham yetarli bo‘lmaydi.

Pradovskiy voleybolchilarning asab tizimi turlarini tadqiq qilib, bir necha guruhlarga ajratadi va xarkterlarini o‘rganadi.

Birinchi guruh- bu guruh sportchilari o‘zlarning qiyin sharoitlardagi o‘yinlari bilan qobiliyatini ko‘rsatadilar va ular jasur harakatchan bo‘lib, kam xato qilishga harakat qiladilar.

Mashg‘ulotlardagi darslarning xarakteridan kelib chiqqan holda ish qobiliyatlarini ko‘rsatish bir xil emas. O‘yinlarda jamoaning fikrini hurmat qiladilar. YAngi o‘yinlarning texnik-taktik usullarini yaxshi, tez va bexato o‘zlashtirib oladilar,

juda tartibli bo‘ladilar. Ular ko‘proq tarbiyaviy ishlarda murabbiy yrdamchisi bo‘lib qoladilar.

Ikkinchi guruh - asab tizimi jaraynlari qo‘zg‘atuvchiga nisbatan ustun keladi. Bu guruh sportchilari o‘zlaring kuchlarini tez tiklab oladilar lekin, mavsum davomidagi sport natijalari barqaror emas. Musobaqa davomida funktsional holatlarni bajarishda yuqori harakatchanligi bilan ajralib turadi. Ular jasurlik bilan o‘yin boshlaydilar va ba’zan yuqori tashabbuskorlik bilan o‘yinga qiziqib ketadilar. Jamoaning fikri bilan o‘rtoqlashmaydi va boshqa o‘yinchilarni hisobga olmasdan o‘zini yuqori qo‘yadi.

Uchinchi guruh - asab tizimi jarayonlarida bosiqlik yuqori turadi. Bu guruh o‘z navbatida ikkita guruhga bo‘linadi:

birinchi guruh sportchilarining hayajonlanish darajasi kuchli, ikkinchi guruh sportchilarida esa tormozlanish kuchli. Ikkala guruh vakili ham mo‘’tadil sport holatida bo‘ladi va qisqa vaqtli tanaffuslar ularning darajasini tushirib yubormaydi. Jiddiy musobaqalar vaqtida himoya harakatlarini jadal va katta yutuqlar bilan bajaradilar Shuningdek vaqti-vaqti bilan hujum ham qilib turadilar. Ularning o‘yin harakatlari qiyin holatlarda jasurligi, aniqligi, o‘z vaqtidaligi, tezligi, diqqatning bir erga yig‘ilganligi bilan ajralib turadi. Birinchi guruhning vakillari kuchli hayajonlanish bilan o‘yinga qiziqib ketadilar va texniktaktik usullarning aniqligini tushirib yuboradilar. Ikkinchi guruh vakillari esa, xotirjamligi, bosiqligi bilan ajralib turadilar.

To‘rtinchi guruh - asab jaraynlarida hayajonlanish va tormozlanish kuchi yetarli emas. Tadqiq qilinaytgan sportchilarning 25% bu guruhni tashkil qiladi. To‘rtinchi guruh sportchilari yaxshi jismoniytomonlarga ega lekin, musobaqalarda va mashg‘ulotlarda o‘zining ish qobiliyati pastligi bilan jamoa tarkibiga kirmaydi. Kuchli qo‘zg‘atuvchilarning ta’sir qilishi ularning asab jaraynlarida tormozlanish hosil qilib, o‘yin natijalarining sur’atini pasaytirib yuboradi. Bu sportchilar birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi guruh vakillari bilan jamoada birga bo‘lsalar ham, g‘alabaga bo‘lgan ishonchi yo‘qoladi.

V.Gorojanin yuguruvchilarni qobiliyatini tadqiq qilib, ikki guruhga ajratadi.

Birinchi guruh - qisqa masofaga yugurishda yuqori start tezligiga ega. Hayajonlanishi yuqori, ta’sirchan, qiziqqon va arzimagan omadsizlikka ham tashvishlanadi, qiyin xolatlarda o‘zini ymon tutadilar. Juda asabiy bo‘lib, uyqusizlikdan, bosh og‘rig‘idan, kayfiyati o‘zgarib turishidan shikoyat qiladi. Ma’suliyatli musobaqalardan bir-ikki kun oldin ularda ichki tormozlanish yuz beradi.

Ikkinchi guruh - sprintercha yuguruvchilar, past start tezligida o‘rta va uzoq masofaga yuguruvchilardir. Xotirjam, bosiq, ta’sirchanligi kam insonlar. Kutimagan

holatlarda o‘zlarini xayajonlarini, asabiylashaytganini bildirmaydilar. Musobaqalarda asosan rekord natijalarga erishadilar. Ular o‘zlarining mehnatsevarligi bilan og‘ir vazifalarni tez bajaradilar, tez kuch yig‘ib oladilar uzoq masofaga yugurishda yaxshi natijalar keltiradilar.

Olingan ma’lumotlardan Shunday xulosaga kelinadiki, start tezligining kattaligi asab tizimining qo‘zg‘alishidan, hayajonlanishning tezligidan hosil bo‘ladi. Start tezligi katta bo‘lgan sportchining, tormozlanish dinamikasi past bo‘ladi, ta’sirlanish tezligi yuqori bo‘ladi. Asab tizimi bunday bo‘lgan sportchilar ta’sirchanligi yuqori bo‘ladi va tinch holatdan harakat bajarishga tez o‘tadilar. Harakatchan sportchilar tezlikni birdan boshlaganlari bilan tez tugatadilar. Sekin boshlangan tezlik esa, ko‘p vaqt saqlanib turadi va uni ma’suliyatli musobaqalarda unumli foydalanish mumkin.

Tabiiy sport qobiliyatlarini o‘rganishda diqqatni ko‘proq asab tizimining kuchi, harakati, kabi xususiyatlariga qaratiladi. Shunday qilib, sportning tezlik turi bilan shug‘ullanuvchilar vakillarida asab jaraynining harakati yuqoriligi kuzatiladi. Tadqiqotchilar yuguruvchilarning asab tizimini har-xil masofada harakatchanligini kuzatib, ularni qanday masofada yugurishini aniqlaydilar.

Shunday qilib, sportdagi nazariy va amaliy o‘ziga xoslik, asab tizimining asosiy xususiyatlarini o‘rganib, jismoniy rivojlanishini va harakat qobiliyatlarini aniqlaydi. Hozirgi zamonda sport natijalari kundan-kunga xalqaro miqyosida o‘sibbormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ataev A.Q. Kurash. O‘smirlar va yoshlarni kurashga o‘rgatishning metodikasi va vositalari. T., 1987.

2. Abdullaev Sh.A “Yosh kurashchilarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2012.

3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. T., 2007.

4. Мунировв Н. А. Национальная борьба (Кураш)-одно из средств создания здоровой духовной среды среди молодёжи //УЧЁНЫЙ XXI ВЕКА. – 2019. – Т. 4. – С. 69-70.

5. Мунировв Н. А. Роль физической культуры и спорта в развитии учащихся //Проблемы науки. – 2021. – №. 2 (61). – С. 47-49.

6. Мунировв Н. А., Раджабов Э. Н. Учебные технологии, применяемые в обучении видам национальной борьбы кураш //Научный журнал. – 2019. – №. 6 (40). – С. 110-111.

7. Alisherovich M. N. Health and physical education in educational institutions technology of development measures //Konferentsii.–2020. – 2020.

8. Ismatovch K. D., Nurali M. O ‘QUVCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHGA YONALTIRILGAN O ‘QUV JARAYONINI LOYIHALASH: 10.53885/edinres. 2022.68. 75.050 Kurbanov Djurabek Ismatovch, Munirov Nurali. Buxoro davlat universiteti katta o‘qituvchisi djurabek. kurbanov. 87@ mail. ru //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 782-784.

9. Муниров Н. А. ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA KURASH DARSLARINI TASHKIL ETISH: Munirov Nurali Alisherovich, o‘qituvchi, Buxoro davlat universiteti //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 173-178.

10. Munirov N. A. YUQORI SINF O ‘QUVCHILARIDA SOG ‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA I //Экономика и социум. – 2022. – №. 11-1 (102). – С. 174-177.

11. Munirov N. JISMONIY TARBIYA MASHG ‘ULOTLARIDA BOLALAR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK YOSH XUSUSIYATLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 1. – №. 1.

12. Alisherovich M. N. THEORY AND METHODOLOGY OF TYPES OF WRESTLING //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 15-3 (118). – С. 54-57.

VARIATSION QATOR TUZISH

Dilshoda Qodirova Abdunabiyevna
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Tajriba-tadqiqot natijalarini dastlabki qayta ishlash, ularning xatoliklarini baholash, o‘rganilayotgan bir nechta ko‘rsatkichlar holida ular orasidagi munosabatlarni aniqlay bilish, ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning asosiy tushunchalari hamda usullaridir.

Tadqiqotlarda muhim bo‘lgan va ko‘p uchrab turadigan sifat bo‘yicha variatsiyaning (o‘zgaruvchanlikning) xususiy xoli alternativ variatsiyadir.

Kalit so‘zlar: variant, variatsion qator, analiz, statistika, to‘plam, nisbiy chastotalar, statistik taqsimot, intervalli variatsion qator.

Statist ishlab chiqishi kerak bo‘lgan «xom» material-to‘plam qanday hosil qilingan bo‘lsa, shunday holda yozilgan qator X_1, X_2, X_n qiymatlardan iborat bo‘ladi: bu to‘plamda hech qanday tartib yo‘q. Birinchi vazifa shu $X_{1,,}{}_{,,}X_n$ variantalar orasida tartib o‘rnatishdan iborat. Agar berilgan $X_{1,}X_{2,}X_n$ variantalarni ortiq yoki kamayib borish tartibida, masalan, bunday yozsak. $X_1 \leq X_2 \leq \ldots \leq X_{n,}$, bu variatsion qator deyiladi. Masalan, pillalarning uzunligini o‘lchashda kuyidagi qiymatlar (santimetr hisobida) hosil bo‘lgan.3, 30 3,40 3, 25 3,40 3,60 3,45 3,43 3, 50 3,35 3, 55 bunga mos variatsion qator quyidagi kurinishda yoziladi: 3,25 3,30 3,35 3,40 3,40 3,43 3,45 3,50 3,55 3,60 boshqa bir misol kuramiz. Tanlab olingan 10 tup g‘o‘zadagi g‘unchalar soni aniqlanganda quyidagi sonlar hosil bo‘lgan:15, 17, 15, 10, 18, 11, 15, 17, 16, 16. variantalarning ortish tartibida yozilgan ushbu 10, 11, 15, 15, 15, 16, 16, 17, 17, 18 qator variatsion qator bo‘ladi. Variantlarning soni nisbatan kam bo‘lgandagina bunday tartibda solib yozish mumkin.

Analiz qilinishi lozim bo‘lgan to‘plamda variantalar soni ko‘p bo‘lganda esa ularni gruppalarga ajratib , so‘ngra jadval yoki qator kurinishida yoziladi. Shundagina olingan ma'lumotlarni oson ishlab chiqish va o‘rganilayotgan to‘plamni to‘la xarakterlovchi statistik ko‘rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin. Berilgan statistik to‘plamni ishlab chikish usuli o‘rganilayotgan belgilarning variatsion xarakteriga bog‘liq bo‘ladi. Statistikada gruppalash masalasi juda katta axamiyatga ega, chunki berilganlarni xato gruppalash tekshirilayotgan to‘plam haqida noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkin.

Sifat bo‘yicha variatsiyada (o‘zgaruvchanlikda) berilganlarni guruhlarga ajratishda berilganlar eng oson gruppalanadi. Masalan, agar mo‘ynalar tusi bo‘yicha ajratilsa, u vaktda ularning taksimlanishini xar bir tusli mo‘ynaning soni va xar bir tusli mo‘ynani mo‘ynalarning umumiy soniga nisbatan foizi orqali ko‘rsatish mumkin. 1 jadval (P.F.Rokitskiy)

1-jadval

500 ta mo‘ynaning tusi bo‘yicha taqsimlanishi.

Mo‘yna tiplari	Har bir tusli mo‘ynalar soni	Mo‘ynalarning umumiy soniga nisbatan foizi
Standart jigar rang	120	24
Kumushdek ko‘k	160	32
Sapfirli	180	36
Qora skandinaviyali	40	8
J a m i	500	100

Biologik tadqiqotlarda muhim bo‘lgan va ko‘p uchrab turadigan sifat bo‘yicha variatsiyaning (o‘zgaruvchanlikning) xususiy xoli alternativ variatsiyadir. Bunda to‘plam elementlarini fakat ikkita guruhga ajratish mumkin. Bunda bir guruhning elementlarida ma'lum bir sifat (yoki belgi) mavjud bo‘lsa, u ikkinchi guruhning elementlarida bo‘lmaydi Masalan, sil kasali bor yo‘qligi tekshirilayotganda xayvonlarning musbat va manfiy reaktsiyali ikki guruhga ajratilishi; u yoki bu jinsli individ tug‘ilishi; duragaylarni bir belgi bo‘yicha ikki formaga ajratish va boshqalar. Bularning hammasi alternativ variatsiyaga misol bo‘la oladi.

Son bo‘yicha variatsiyada berilganlarni guruxlarga ajratishda belgi diskrit o‘zgaruvchan bo‘lsa, u holda to‘plamdagi variantalarning turli qiymatlarini o‘sish tartibida yozib, ulardan har birining takrorlanish sonini ko‘rsatish yetarlidir.

Variatsion qator- belgininig (ortishi yoki kamayishi bo‘yicha) tartibga solingan turli qiymatlari va ularning mos chastotalari katori ushbu

$X_1, X_2, , ,X_k$

$N_1, n_{2,,,}n_k$ ko‘rinishida yoziladi.

Masalan 6 jadval variatsion katorga misol bo‘la oladi. Variatsion katordagi chastotalar ushbu to‘plamda aloxida variantalar necha marta uchrashi ni kursatadi Jumladan 6 jadvaldan asosiy poyasidagi buginlari 10 ta bulgan go‘zalar soni bo‘ginlari 11 ta bo‘lgan go‘zalar soni 15 ta va x.k ekanligi ko‘rinadi.

Endi bunday savolni qo‘yish mumkin: Bo‘g‘inlari 10 tadan kam g‘o‘zalar soni qancha? Bunday g‘o‘zalar yo‘q (0) ; bo‘g‘inlari 11 ta dan kam g‘o‘zalar soni

qancha? Bo‘g‘inlari 10 ta va undan kam bo‘lgan g‘o‘zalar soni 2 ta.;Bo‘g‘inlari 12 tadan kam g‘o‘zalar soni qancha? Bo‘g‘inlari 10 ta va 11 ta g‘o‘zalar soni 2]15*17 Bo‘g‘inlari 13 tadan kam g‘o‘zalar soni qancha? Bo‘g‘inlari 10 ta , 11 ta va 12 ta g‘o‘zalar soni 2]15]20*37 ta ;Bo‘g‘inlari 14 tadan kam g‘o‘zalar soni qancha? Bo‘g‘inlari 10 ta ,11ta, 12ta, va 13 ta bo‘lgan g‘o‘zalar soni 2]15]20]16*53 ta va x.k. Shunday yul bilan 0 ,2, 17, 37, 53, 59, 60 (oxirgi son to‘plam hajmiga teng) sonlarni hosil qilamiz. Bu sonlar birinchi variantadan boshlab hamma variantavlar chastotalarini ketma-ket qo‘shishdan hosil bo‘ladi. Bu sonlarni *yig‘ilgan chastotalar* deyiladi. Yig‘ilgan chastotalar berilgan to‘plamning biror variantadan kichik bo‘lgan elementlari sonini xarakterlaydi.

Belgining turli qiymatlari chastotalarining tanlanma xajmiga nisbati shu belgining nisbiy sanoqlari yoki *nisbiy chastotalari deyiladi*. Masalan, ushbu

X_i: X_1, X_2 ,,,, ,X_k

7. Denning, S. (2004). The power of storytelling. Knowledge Management, 7(4), Retrieved May 29,2005 fiom the Ebsco Host database.

8. Ghanbari, M., & Marzban, A. (2014). Effect of extensive reading on incidental vocabulary retention. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 116. 3854- 3858. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.01.854.

9. Ghosn, I. K. (2002).Four good reasons to use literature in primary school ELT. ELT Journal, 56(2): 172–179.

10. Krashen, S. (1982). Principles and practice in second language acquisition, Oxford: Pergamon Press.

TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA O'QITUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Zuxra Xalilova G'ulom qizi
Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o'qituvchisi
Gulnoza Zokirova Shuxratovna
Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy va amaliy san'at mashg'ulotlari jarayonida kreativlik, mutaxassis kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, o'quvchilarning innovatsion faoliyati, interfaol ta'lim, innovatsion ta'lim va axborot- kommunikatsiya texnologiyalari, o'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: rangtasvir, tasviriy san'at, kulolchilik, kreativlik, naqqoshlik, qobiliyat, interfaol metodlar innovatsiya, ta'lim, innovatsiya.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirmoqda. Bunday ezgu jarayonni madaniyat va san'at rivojiga, ijod ahliga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor misolida ham ko'rish mumkin. Binobarin, davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi degan so'zlarining zamirida keng ma'no mujassamdir. Shunday ekan san'at xususan tasviriy san'atni o'rganar ekanmiz, biz avvalo tasviriy san'atning maqsad vazifalari hamda tasviriy san'at va uning mohiyati, tur va janrlari haqida bilmog'imiz lozim.

Tasviriy san'at - eng qadimiy va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. Aslida san'atning turlari juda ko'p. Ular badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, teatr, kino, xoreografiya, me'morchilik, amaliy bezak kabi boshqa san'at turlari ham mavjuddir. Odatda, haqqoniy borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog'oz yuzasida) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb ataladi. Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega. XIX asrgacha me'morchilik, haykaltaroshlik va rangtasvir tasviriy san'atning turlari bo'lib hisoblangan. Asrning oxirlarida esa grafika tasviriy san'atning eng muhim va hozirjavob turlaridan biriga aylandi. So'nggi 20 yil ichida san'atning dizayn kabi

turi ham o‘z o‘rnini topdi. Tasviriy san’atning hamma turiari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o‘xshashliklari bor. Lekin har birining o‘ziga xos tasvirlash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ulaming har biri ishlatilish o‘mi, tasvirlaydigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator turlariga va janrlarga bo‘linadi.

Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Kreativlik - shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. Grafikaga oddiy qora qalam, tushda chizilgan surat, mavzuli kompozitsiyalar kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasmlar, illyustratsiya, plakat, hajviy, sharj, efiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi. Grafika san’ati asosan chiziq, shakl va oq qora ranglar orqali tasvirlanadi. San’atning ayrim turlarida bo‘yoqlardan ham foydalaniladi, lekin asar mazmunini ochib berishda asosiy vazifani o‘tamaydi, faqat kishilami jalb qilishi yoki chaqiriq vazifasini bajarishi mumkin. Shuning uchun ham bu sohada ikki uch xildan ortiq bo‘yoq deyarli ishlatilmaydi. Tasvir mazmuni, xarakteri va boshqa barcha xususiyatlari bo‘yoqlar orqali ifodalab berilsa, rangtasvir san’ati deb ataladi. Tasviriy san’atning bu turida ijodkor o‘z ichki kechinmalarini ranglar orqali tasvirlaydi, fazoning cheksizligi, undagi narsalaming rang- barangligi, moddiyligini mohirona ko‘rsatadi. Masalan, qizil va qora bo‘yoqlarda fojiaviylik aks ettirilsa, och moviy va yashil ranglarda tinch va osoyishta holatlar tasvirlanishi mumkin.

Rangtasvir san’ati jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o‘zlashtirishda, hatto uni idrok qila bilishda ham o‘quvchidan muayyan tayyorgarlikni talab etadi. Rangtasvir asarlari yana o‘zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko‘ra monumental, dastgohli va dekorativ turiarga bo‘linadi. Monumental rangtasvir me’morlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib bu turdagi asarlar mustaqil mazmuniga ega hamda ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi. Bunday asarlar odatda uzoq masofadan ko‘rishga mo‘ljallanadi va obrazlarni iloji boricha umumlashtirilgan holda tasvirlanadi. Ranglar ham birmuncha shartli olinadi, shunga

qaramasdan u borliq to‘g‘risida haqqoniy tasavur berishi kerak. Monumental rangtasvir me’morchilikda ma’lum miqdorda bezash vazifasini o‘taydi, shuning uchun uni ba’zan monumental- dekorativ rangtasvir deb ham yuritiladi.

Haqiqatdan ham shunday, biz chizmani ko‘zdan kechirib unda tasvirlangan narsaning balandligi, uzunligi va eni hamda uning elementlari tarkibiy qisimlari va shartli belgilarini o‘rganib chiqib, narsani ko‘z o‘ngimizda gavdalantiramiz, ya’ni chizmasini o‘qiymiz. Shunday qilib chizmani o‘qish deganda narsalarni bajarilgan tasvirlariga asosan uning tashqi va ichki tuzilishlarini bilib hamda fahimlab bir butun obrazni tasavvur qilish, uning o‘lchamlarini, ishlov berish usullarini bilish tushuniladi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, chizmani o‘qishda fazoviy tasavvur eng asosiy ko‘rsatkich ekan, shu sababli o‘quvchilarning fazoviy tassavuri past bo‘lsa ular chizmani o‘qishda qiynaladilar va chizmachilikka bo‘lgan qiziqishlari susayib boradi. Shuning uchun biz chizmachilik fanlari o‘qituvchilari butun etiborimizni talabalarning fazoviy tassavurini oshirishga bor kuch g‘ayratimizni va metodik so‘zlashlarimizni safarbar qilishimiz zarur bo‘ladi. Shundagina biz yoshlarni kelgusidagi ishlab chiqarish sharoitiga yoki ta’lim jarayoniga etuk bo‘lishlariga erishamiz.

Fazoviy tassavurlash usullari to‘g‘risida tahlil qilib chiqilgan adabiyotlarda faqatgina mashq qilish usullari to‘g‘risida gap boradi. Mashq qilish usullariga quyidagi turlari kiradi. Tasviriy san’at mashg‘ulotlari o‘quchilarni har tomonlama barkamol rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tasviriy san’at o‘quvchilarning qiziqish doiralari kengayishiga, ularning estetik ehtiyojlarini tarbiyalashga, tafakkurini, tassavurini, xotirasini, badiiy qobiliyatlarini, borliq va estetik munosabatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Tasviriy san’at darslarida shaxs uchun muxim bo‘lgan qat’iylik, maqsadga intilish, ozodalik, mehnatsevarlik kabi sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat jarayonida o‘quvchilar bizni o‘rab turgan borliq hodisalarini o‘rganadilar, predmetlarni taxlil qiladilar va qator grafik va rangtasvir borasida ko‘nikma va malakalarini egallaydilar. Shu bilan bir qatorda tasviriy san’at o‘quvchilarda borliqni o‘rganishning samarali vositasi bo‘lishi bilan bir qatorda ularni ko‘rish idroki, tasavvuri, tafakkuri, fazoviy tasavvuri, xotirasi, sezgisi va boshqa psixik jarayolarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Tasviriy san’at darslaridagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning tasviriy qobiliyatlarini bir qator komponentlarini rivojlantirish va mukamallashtirshga yordam beradi. Bularga biz naturani yaxlit aktiv ko‘ruv idrok etish fazoriy, kompozistion va obrazli tafakkur, xotira, tasavvur, ko‘nikma va malakalarni aytishimiz mumkinki, bu professional tayyorgarlikni yaxshilash imkonini beradi.

O‘quvchilarda fazoviy tasavvurlarni samarali shakllantirish uchun biz oldin narsani o‘ziga qarab rasm chizdirdik, so‘ng tasavvur asosida faqat boshqa holatda chizdirdik. Qo‘yilgan vazifa shundan iborat ediki o‘quvchi natura shaklini boshqa ko‘rish nuqtasidan tushunib chizgan. Natijada o‘quchilarga tasavvur asosida rasm chizish yordam berdiki u narsani o‘ziga qarab rasm chizganda tushirib qoldirgan yoki ahamiyat bermagan joylarini bilib oldilar. Fazoviy tasavvurlarni samarali shakllantirish uchun rasm chizishning turli xil usullarini yo‘llash lozim.

Zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobilyatlarini rivojlantirishda interfaol usullardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Shunga muvofiq interfaol o‘qitish metodlari asosida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish, o‘quvchilarda kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Artikov G‘.A. “Materialshunoslik, rangtasvir texnika va texnologiyasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent “INFO CFPITAL GROUP” 2018 yil.
2. Artiqov G.A. “Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi”, O‘quv qo‘llanma. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T. 2007.
3. Artiqov G‘.A. “Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi” , O‘quv qo‘llanma. T., Sharq, 2007 y. 72 b. 4 nusxa.
4. O‘zbekiston san’ati. T., “Sharq”, 2001.
5. S.Bulatov. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. Toshkent, 1991

O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK VA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLAR

Bashorat Qudratova O‘ktamovna
Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o‘qituvchisi
Zulfiya Azizova Ruziyevna
Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchilik faoliyatidagi pedagogik va kommunikativ qobiliyatlar, ularning turlari va ularning sohadagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qobiliyat, iqtidor, pedagogika, umumiy qobiliyat, shaxsiy sifatlar, kasbiy sifatlar, muloqot, aloqa o‘rnatish, muomala uslublari pedagogik ta’sir ko‘rsatish, pedagogik nizo.

Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, bu xususiyatlarni haddan tashqari keng to‘ldirish imkoni oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi, hattoki shunday bu qobiliyat bilan hammasidan ko‘ra bir- biri bilan chambarchas bog‘liq faoliyatning muvaffaqiaytli bajarish imkoni aslo yo‘q emas. Qobiliyatlar bilim, ko‘nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo‘ladi. Faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar to‘g‘risida mulohaza yuritish imkonini beradi. Demak, shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiayti qobiliyatlar deyiladi.

Pedogogik qobiliyat – bu qobiliyat turlaridan biri bo‘lib, kishing pedagogik faoliyatiga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olishni aniqlab beradi. Pedagogik psixologiyada o‘qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o‘rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan.

Pedagogik olim I.P. Podlasiy pedagogik qobiliyatning tuzilishini quyidagi tarzda aniqlashtirgan: 1)tashkilotchilik, 2)diagnostik, 3)pertseptiv, 4)kommunikativ, 5)suggestive (ishontirish), 6)tadqiqotchilikka doir, 7)ilmiy-bilishga doir, 8)gnostik.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin: 1)didaktik qobiliyat, 2)akademik qobiliyat, 3)perseptiv qobiliyat, 4)nutqiy qobiliyat, 5)tashkilotchilik qobiliyati, 6)obro‘ga ega bo‘lishlik qobiliyati, 7)kommunikativ qobiliyatlar, 8)psixologik tashxis (diagnoz)ga doir qobiliyatlar, 9)diqqatni taqsimlash qobiliyati, 10)konstruktiv qobiliyat, 11)gnostic qobiliyat.

Pedagogik qobiliyatlar o‘qituvchi xarakter-xislatlari bilan bog‘liq. Uyushqoqlik, qat’iylik, haqqoniylik pedagogik faoliyat darajasining ortishiga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko‘ngilchanlik, adolatsizlik pedagogik faoliyat samarasini pasaytiradi.

Kasbiy faoliyat yaxlit tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismlarni o‘zida uyg‘unlashtiradi. I.P. Podlasiyning kasbiy salohiyatning tuzilishiga doir tasnifidan kelib chiqib, N.M. Egamberdiyeva pedagogik ta’limdagi kasbiy yetuklik (professionallashuv), ijtimoiylashuv, insonparvarlashuv va madaniy ijodkorlikning zamonaviy yo‘nalishlarga muvofiq keluvchi quyidagi muhim tuzilishli tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatadi:

-pedagogik madaniyat;
-pedagog ijodkorligi;
-pedagogik aql-idrok;
-kasbiy chuqur bilimga egalik;
-individual faoliyat uslubi;
-ijodiy tashabbusning rivojlanishi;
-individual faoliyat;
-insonparvarlikka yo‘naltirilganlik;
-ijtimoiy faollik.

Kommunikativ qobiliyat- bu pedagogik o‘zaro harakat sohasida maxsus ko‘rinishga ega bo‘lgan muloqotga qobiliyatlilikdir. Psixologik adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir qancha turlari ajratib ko‘rsatiladi: 1) insonning insonni tushuna olishi, 2) insonni o‘z-o‘zini anglay olishi, 3) muloqot vaziyatini to‘g‘ri baholay olish ko‘nikmasi.

Ta’lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi tomonidan pedagogik ta’sir ko‘rsatishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi: talab, istiqbol, rag‘batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Muloqotning ijtimoiy-psixologik nazariyasi va pedagogik tajribalarni o‘rganish pedagogik ta’sir etishda ikki metod: ishontirish va uqtirishdan keng foydalanish lozimligini ko‘rsatadi.

O‘qituvchining har qanday tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi, oqibat natijada o‘quvchi ruhiyatiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatishga ya’ni o‘quvchilarda ijobiy hissiyotlarni: xulq-atvor, munosabatlar, hatti-harakatlarni shakllantirish va mustahkamlashga yo‘nalgan bo‘ladi. Lekin ishontirirsh va uqtirishning texnologik mexanizmlari turlichadir. O‘sib borayotgan yoshlar ijtimoiy muhit va tabiat bilan ham o‘zaro ta’sirlanadilar. Bu o‘zaro ta’sir natijasida ularda ishonch, yangi bilimlar va munosabatlar, axloqiy me’yorlar majmui vujudga keladi.

O‘qituvchi pedagogik bilimdonlik, kreativlik, refleksiyaga ega bo‘lish bilan birga pedagogik madaniyatni ham o‘zlashtira olishi zarur. Pedagogik madaniyat kasbiy nuqtayi nazardan pedagogic faoliyatni olib boruvchi mutaxassis umumiy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’lim va tarbiyada o‘qituvchidagi pedagogik qobiliyat va kommunikativlik qobiliyati muhim o‘rin egallaydi. Bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan, o‘ziga, boshqa insonga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o‘z to‘g‘ri munosabatini bildira oladigan, mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, ijodkor, tashabbuskor va tadbirkor bo‘lmog‘I lozim. O‘quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so‘zsiz o‘qituvchiga uning o‘quv-tarbiya jarayonini to‘g‘ri boshqara olishiga va o‘quvchilar bilan o‘rnata oladigan muomala va munosabatlariga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent-2017

2. X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi, Toshkent-2018

3. J. Hasanboyev, X.A. To‘raqulov, I.SH. Alqarov, N.O‘. Usmonov. Pedagogika, Toshkent-2011.

4. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In *Conference Proceedings* (pp. 41-43).

5. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O‘RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. *Scientific progress*, *1*(6).

6. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O‘QITISHDA

ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. *Scientific progress*, *1*(6).

STRESS VA STRESSGA BARQARORLIK MUAMMOSINING XORIJ PSIXOLOGIYASIDA O‘RGANILGANLIGINING ILMIY NAZARIY TAHLILI

Zulxumor Ko‘chkinova Shohobiddin qizi
Xalqaro Nordik Universiteti Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi
E-mail:xumora0408@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola stress va stressga barqarorlik, stress atamasi birinchi marta kim tomonidan fanga kiritilganligi, turli xorij psixolog olimlarining stress haqidagi qarashlari va ularning stressni o‘rganish borasidagi faoliyati to‘g‘risida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Stress, stressga barqarorlik, shikastlovchi omil, iskanjaga olish, zo‘riqish, eustress, distress, fiziologik stress, psixologik stress, stressor.

Аннотация: В данной статье написаны о стрессе и стрессоустойчивости, кто впервые ввел в науку термин стресс, взгляды различных зарубежных психологов на стресс и их деятельность по изучению стресса.

Ключевые слова: Стресс, устойчивость к стрессу, травмирующий фактор, деформация, деформация, эустресс, дистресс, физиологический стресс, психологический стресс, стрессор.

Annotation: This article is written about stress and resilience to stress, who introduced the term stress to the science for the first time, the views of various foreign psychologists about stress and their activities in the study of stress.

Key words: Stress, resistance to stress, traumatic factor, strain, strain, eustress, distress, physiological stress, psychological stress, stressor.

“Stress” tushunchasining qo‘llanilishi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, V.I.Petrushinning ma’lumotiga ko‘ra, mazkur atama ilk marotaba 1303-yilda shoir R.Man tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, u bu atamani o‘z she’rida ishlatgan. She’rda ushbu atama “Bu uqubat Olloh tomonidan qirq yil qishni sahroda o‘tagan va katta stressni boshidan kechirayotgan odamlarga yuborilgan” tarzida ifodalanganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Stressni ilmiy atama sifatida ilk bor o‘rganilishi esa Kanadalik olim G.Selega tegishli hisoblanadi. O‘sha vaqtlarda nashr etiladigan “Nature” jurnalining 1936-yil 4-iyuldagi sonida G.Selening “Turli shikastlovchi omillar chaqiruvchi sindrom” deb nomlangan maqolasi chop etilgan va unda organizmning turli xil kasalliklarni

qo‘zg‘atuvchi omillar ta’sirida yuzaga keladigan standart reaksiyalari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu ma’lumotlar stress haqidagi ta’limotning boshlanishiga asos bo‘lgan.

Stress muammosi dastlab G.Sele tomonidan maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, bugungi kungacha bo‘lgan davrda ushbu muammo yuzasidan juda ko‘p ishlar amalga oshirildi. Jumladan, stress tushunchasi, uning turlari, rivojlanish bosqichlari va unga nisbatan barqaror munosabatda bo‘lish masalalari ko‘plab tadqiqotchilar uchun izlanish manbasiga aylangan. Mazkur muammo doirasida xorij olimlaridan G.Sele, D.Richardson, F.Milman, R.Lazarus, S.Folkman, V.S.Merlin, Dj.V.Rotter, R.Mak-Kray, Dj.D.Parker, B.X.Vardanyan, P.B.Zilberman kabi juda ko‘plab tadqiqotchilar ish olib borganlarligini ko‘rishimiz mumkin.

Ingliz tilidan tarjima qilinganda “stress” so‘zi “iskanjaga olish, bosim, zo‘riqish” ma’nolarini beradi. Psixologik atamalar lug‘atida stressga quyidagicha izoh berilgan: “...kuchli ta’sir ostida paydo bo‘luvchi inson yoki hayvondagi zo‘riqish holatidir”. B.G.Mesheryakov tomonidan nashrga tayyorlangan lug‘atda esa, stress – “insonning kundalik faoliyati jarayonida yuzaga keladigan bir muncha murakkab, qiyin sharoitlarda va muhim vaziyatlarda paydo bo‘ladigan psixik zo‘riqish holatidir” deb ta’riflangan. Shuningdek, o‘zbek tilida nashr etilgan, psixologik atamalar ruscha o‘zbekcha lug‘atida: “Stress – (ingl. stress – zo‘riqish, kuchlanish, lot. Strees-zo‘riqish). Organizmning jismoniy va psixik shikast yetkazishi mumkin bo‘lgan ta’sirlarga nisbatan bildiradigan adaptatsion-himoya munosabatlari majmui deb ham hisoblashimiz mumkin bo‘ladi. Zo‘riqish holati odam organizmiga ta’sir etayotgan turli noxush omillar ta’siriga javoban yuzaga keladigan fiziologik himoya munosabatlari majmuidir. Kuchli ta’sir ostida yuzaga keluvchi zo‘riqish holati–deb izohlangan.

G.Selening fikriga ko‘ra, “...stress organizmning unga nisbatan qo‘yilgan har qanday talabga nisbatan nospesifik javobidir”. G.Sele stressning uch bosqichini ajratib ko‘rsatadi. Birinchisi-vahima reaksiyasi, insonning stressor bilan to‘qnashuvi bilanoq yuzaga keladi va organizmdagi barcha zaxiralarning faollashishida namoyon bo‘ladi. Undan so‘ng qarshilik bildirish (rezistensiya) bosqichi boshlanadi, bu organizmning tashqi ta’sirga nisbatan muvaffaqiyatli turib bera olishi bilan izohlanadi. Agar stressogen omillarni yo‘qotish yoki bartaraf etish uzoq vaqtga cho‘zilsa, u holda uchinchi-tugash bosqichi boshlanadi. Organizmning moslashuv imkoniyatlari susayadi va endi tiklanmaydigan zaxiralarni sarflashga o‘tiladi. Bu

bosqichda organizm yangi ta’sirlarga nisbatan qarshilik ko‘rsatishga kuchi etmaydi yoki yaramay qoladi, bu esa turli xil kasalliklarning kelib chiqish xavfini oshiradi.

Keyinchalik G.Sele stressni ikki turga bo‘lishni taklif etadi: eustress va distress. Eustress G.Selening ta’biricha, zo‘riqish va muvaffaqiyatli qarshilikdan keying hamda faollikni oshiruvchi quvonch manbai bo‘lgan ijobiy omil sifatida qaraladi. Stressning bunday turida o‘z-o‘zini anglash, bo‘lib o‘tayotgan holatlarni tushunish, xotiraning jarayonlarning faollashishi kabilar kuzatiladi.

Distress (distress–charchash, tugash, baxtsizlik) esa o‘ta kuchli stress holatlarida boshlanadi, bunda zo‘riqish va qarshilikdan so‘ng quvonch emas, balki nochorlik, ojizlik, umidsizlik, imkonsizlik, rag‘batsizlik, talab etilayotgan zo‘r berishni adolatsizlik sifatida qabul qilish va qattiq ranjish kabilar kuzatiladi. G.Sele tomonidan ta’riflangan bu tarzda paydo bo‘luvchi psixik sindromni ‘‘emotsional’’ stress nomi bilan o‘zlashtirildi. Bu atama ostida emotsional-psixik reaksiyalar, sindromlar, affektiv reaksiyalar, shuningdek ularning asosida yotuvchi fiziologik mexanizmlar tushuniladi.

Stressni fiziologik va psixologik tushunchalar sifatida turlarga ajratishga birinchi bor uringan olim R.Lazarus hisoblanadi. U ilgari surgan konsepsiyadagi g‘oyaga ko‘ra, “Fiziologik stress real qo‘zg‘atuvchilar ta’sirida yuzaga keladi, psixologik stress esa mavjud vaziyatni inson o‘z individual bilim va tajribalaridan kelib chiqqan holda xavfli va qiyin deb baholashi natijasida kelib chiqadi”-deydi. R.Lazarusning mazkur g‘oyasiga asosilangan holda keyingi yillarda stressni ikki turga-fiziologik stress va psixologik stressga bo‘lish urf bo‘ldi. Qayd etish lozimki, fiziologik stressda hamisha psixik elementlar mavjud bo‘ladi va aksincha.

Dj.Everli va R.Rozenfeldning fikrlariga ko‘ra, ko‘pgina (ichki va tashqi) qo‘zg‘atuvchilar (ta’sirlar)ni stressorlarga aylanishida ayni shu stimullarni mantiqiy va emotsional baholash katta rol o‘ynashi, agar qo‘zg‘atuvchi shaxs tomonidan o‘ziga nisbatan xavf-xatar yoki tahdid sifatida baholanmasa, u holda stress reaksiya umuman sodir bo‘lmasligi qayd etiladi. Shuningdek, xuddi shu zaylda stress reaksiyalarning aksariyati shaxsning o‘zi tomonidan paydo qilinishi va bu reaksiyalar shaxs tomonidan qanchagacha qo‘yib berilsa (imkon berilsa), shuncha vaqtgacha davom etishi haqida ta’kidlanadi.

V. A.Bodrov mavjud stress omillarini guruhlashga e’tibor qaratadi va u stressorlarning 4 guruhini ajratib ko‘rsatadi. Bular:

1.Shiddatli faoliyat bilan bog‘liq stressorlar. Ularning organizmga ta’siri insonning qandaydir maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni bajarishi jarayonida amalga

oshadi. Bunday stressorlar faqat faoliyatning kechishini buzish bilangina cheklanmasdan, balki uning faollashuvi va kuchayishiga olib kelishi ham mumkin.

2.Baholanish bilan bog‘liq stressorlar. Ular insonga uzoq vaqt davomida yoki bevosita faoliyatni amalga oshirish davomida, shuningdek faoliyatni tugatishi bilanoq yoki foliyatni tugatganidan biror muddatdan so‘ng ta’sir etishi mumkin.

3.Faoliyatdagi nomuvofiqlik (mos kelmaslik) stressorlari.

4.Jismoniy va tabiiy stressorlar. Agar V.A.Bodrovning mazkur klassifikatsiyasidan kelib chiqib xulosa qilsak, har qanday stress fiziologik bo‘la oladi, chunki ularning barchasi turli darajadagi fiziologik reaksiyalar orqali kechadi, shuningdek har qanday fiziologik stressda ham emotsional reaksiyalar mavjud bo‘ladi, ya’ni u og‘riq, shovqin, vibratsiya, gipoksiya, hidlarga toqatsizlik, yuqori yoki past harorat va shu kabi boshqa sabablar tufayli yuzaga kelsa-da, har doim unda emotsionallik mavjud bo‘ladi, chunki bularning barchasi o‘ziga xos emotsional kechinmalarga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, demak, stressning har qanday turidagi fiziologik va emotsional reaksiyalarni boshqarish uchun shaxsda stressga barqarorlik xususiyati mavjud bo‘lishi lozim, ya’ni stressning asosiy individual xarakteristikalaridan biri sifatida stressga moslashuvchanlik yoki boshqacha aytganda – stressga barqarorlik xususiyatini tadbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Stressni yuzaga kelishi uni qancha vaqt davom etishi shaxsning o‘ziga bog‘liq bo‘lib uni yengib o‘tish biz o‘ylaganday mushkul jarayon hisoblanmasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие и преодоление /В. А. Бодров. – М.: Персе, 2006. – 528 с.

2. Лазарус Р. Теория стресса и психофизиологические исследования. — В кн.: Эмотсионалный стресс. - М.: Медицина, 2010. – С.178-209.

3. Лазарус Р.С. Псйchологисал стресс анд тhе сопинг процесс / Р.С. Лазарус. Н.Й., 2006. - 466 п.

4. Эверли Дж.С. Стресс: природа и лесhение. Пер.с анг. /Дж.С.Еверли, Р.Розенфелд. - М.: Медитсина, 2013. – 224 с.

5. Селе Г. Стресс без дистресса. - М. Наука, 1979. – 342 с.

6. Селе Г. Очерки об адаптатсионном синдроме. - М.: Медитсина, 1960. – 312 с.

7. Psixologik atamalar ruscha – o‘zbekcha izohli lug‘ati /Psixol. fan. dokt., prof. G‘.B.Shoumarov tahriri ostida. /Tuzuvchilar: Sog‘inov N.A.Nishonova

Z.T.Karimov X.K.Umarov B.M.Usmanov – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019.-400 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYALANUVCHILARDA KOMMUNIKATSIYA KO‘NIKMALARINI SHAKILLANTIRSHDA SHARQ ALLOMLARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARIDAN FOYDALANISH

Sevara Abduxakimova Sherali qizi
Xalqaro Nordik Universiteti, Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi
E-mail: abduxakimovasevara849@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalar kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirishda Sharq allomalarining g‘oyalaridan foydalanishning pedagogik–psixologik muammo ekanligi yortilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Kommunkatsiya, konsepsiya, ilk qadam, muloqot, tarbiyalanavuvchi, ta’lim, tarbiya, nutq, qiziqish, bilim, ma’lumot, tushuncha, hamkorlik.

Аннотация: Аннотация: В данной статье освещается и анализируется педагогико-психологическая проблема использования идей восточных ученых в формировании коммуникативных навыков детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Общение, концепция, первый шаг, общение, учащийся, образование, обучение, речь, интерес, знание, информация, понимание, сотрудничество.

Annotation: This article highlights and analyzes the pedagogical-psychological problem of using the ideas of Eastern scholars in the formation of communication skills of preschool children.

Keywords: Communication, concept, first step, communication, learner, education, training, speech, interest, knowledge, information, understanding, cooperation.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim sohasida har tomonlama amalga oshirilayotgan ishlar e’tiborga molikdir. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining dastlabki bo‘g‘ini bo‘lishi bilan birga rivojlanib borayotgan bolani har tomonlama maktab ta’limiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ushbu ta’lim tizimi davlat siyosati darajasigako‘tarilishi ham bejizga emas. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan farmon, qaror va farmoyishlar maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga yo‘naltirilganligi, tizimni yangi bosqichga olib chiqish, isloh qilishga qaratilganligi barchaning

e’tiboridadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ 4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli farmoni, 2017-yil 9-sentabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261-sonli qarori, shuningdek, Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-MX sonli “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” hamda 2022-yilda ikkinchi bora takomillashtirilgan tarzda nashrdan chiqqan “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturini amalda joriy etish kabi davlat hujjatlarida bu sohaga tegishli bo‘lgan muammolarga yechim topish hamda kamchiliklarini bartaraf etish nazarda tutilgan.

Muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir - birlariga nimanidir aytish istagi tug‘iladi.

Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Jaloliddin Dovoniy, Alisher Navoiy va boshqalar bola tarbiyasi, ularning dunyo qarashi, bilimi rivojlanib borishida tarbiyaning, so‘zning, muloqotning o‘rni nihoyatda beqiyosligi haqida o‘z asarlarida aytib o‘tganlar.Kommunkatsiyani shakllantirishda sharq allomalarining g‘oyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, zero moziyga qarab ish ko‘rmoq hayrlidir. Bunga quyida nomlari keltirilgan allomalarimiz fikrlari diqqatga sazovordir. Sharqning qomusiy mutafakkiri Abu Nasr Forobiy (873-950) insonni har tomonlama takomillashtirish, ularni umumiy baxt- saodatga yetaklash yo‘llari va usullarini o‘zining ijtimoiy-siyosiy ta’limoti markaziga qo‘yadi, bu esa uning dunyoqarashlarning umuminsoniy asosga egaligidan dalolat beradi. Forobiy fikriga ko‘ra ta‘lim va tarbiya - bu nafaqat aqliy rivojlanish, balki umuman ma’naviy hissiy kommunikativ rivojlanish, shu jumladan axloqan rivojlanish poydevoridir.

Ta’lim va tarbiya o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lib ular shaxsni ma’nan kamolotga yetkazuvchi turli yo‘llar hisoblanadi. Farobiy bilimidan ma’rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘ – salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi ahloq va odobi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin». Forobiyning “Fozil odamlar shahri”asarida kommunkatsiya haqida ham alohida to‘xtalib o‘tgan bo‘lib oqil odamgina nutqi

ravonligi hamda to‘g‘ri so‘zligi bilan xalq orasida hurmatga sazovor bo‘lishini e’tirof etgan.

Ibn Sino (980-1037) pedagogika va psixologik masalalariga ijodiy yondashgan. U bola tabiatini nafaqat tabib, balki yetuk pedagog sifatida ham chuqur bilishini namoyon qilgan. Olimning bolalarga ta’lim va tarbiya berish haqidagi ko‘plab fikrlari o‘zining chuqurligi, insonparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilganligi va tarbiyadek murakkab muammoni to‘g‘ri talqin qilishi bilan kishini lol qoldiradi. Ibn Sino taklif qilgan tarbiya va ta’lim mazmuni aqliy tarbiya, jismoniy sog‘lomlashtirish, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya, kommunikativ jihatdan tarbiyalash va hunar o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Ibn Sino bola tarbiyasining butun mashaqqati va murakkabliklarini juda chuqur tushungan. Ibn Sino o‘z asarlarida bemorlarni davolashda hakimning shirinso‘zligi uni hayotga qaytraishi mumkin shu sabab ham tarbiya jarayonida bolaning tilini to‘g‘ri shakllantirish lozim deb aytib o‘tgan. «Tib qonunlari»ning «Tarbiya haqida» nomli bo‘limida qo‘yilgan masalalar aniq hal etiladi,bola xarakterini tarbiyalash haqida qimmatli fikrlar bildiriladi. Axloqiy, aqliy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g‘ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suhbatga bo‘lish unga nasihat qilishdir. Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan o‘zviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi. Ibn Sino bola shaxsini hurmat qilish, bolaning tabiiy yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda uning qiziqishlarini o‘rganishga chaqiradi.

Ibn Sino bola tarbiyasining barcha murakkabliklari va qiyinchiliklarini tushungan. U jismoniy jazoning me’yoridan ortib ketishiga qarshi chiqqan. Uning fikriga ko‘ra, risoladagidek tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bolalarga insoniy munosabatda bo‘lish darkor. Tarbiyachining o‘zi bola shaxsini hurmat qilishi, uni sevishi va bola bilan yaxshi munosabatda bo‘lishi lozim.Ibn Sino tarbiya omilining ahamiyatini chuqur anglagan va ijobiy omil ahamiyatini juda qadrlagan, uni tarbiyaning asosiy vositalaridan biri deb bilgan.

Alisher Navoiy asarlari besh yuz yildan buyon ko‘plab avlodlarini hayajonga solib keladi. Insonparvarlik, muhabbat g‘oyalari, insonning oliy maqsadlarini kuylash Navoiy merosida asosiy o‘rin tutadi. Navoiyning pedagogik qarashlari o‘ta insoniyligi bilan ajralib turadi. U bola shaxsini shakllantirish, muloqotini rivojlantirish va aqliy tarbiyalash masalalariga juda katta ahamiyat bergan, Navoiy farzandni oilaga quvonch va baxt keltiruvchi shamchiroq, deb bilgan.

Navoiy bolaga uning yoshiga qarab eng kichik yoshdan to‘g‘ri tarbiya berish zarur, fanlarni o‘rganishni iloji boricha barvaqt boshlash lozim, deya ta’kidlagan. Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va

qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir – birlariga bo‘lgan ruhiy ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi uqtiradi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o‘zlariga xos xususiyatiga e’tibor berishni ta’kidlaydi. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog‘i shart. Oilada bola tarbiyasi uning muloqoti va ravon so‘zlashi uchun yetarli darajada e’tibor qaratilishi haqida aytib o‘tgan. Shundagina ularning noo‘rin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi.

Markaziy Osiyo xalqlari ilm – fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ siymolardan biri Mirzo Ulug‘bek. U avvalo yosh avlodning aqliy va ma’rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarini egallashga da’vat etdi. Faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining komil topishini ta’minlashga ishondi. Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa, o‘qimishli ota – onalar o‘z farzandlarining xaqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozim.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, demak, maktabgacha yoshda to‘g‘ri muloqotga o‘rgatish lozim sababi bu - eng avvalo bola hayotining birinchi yilidan boshlab nutqni rivojlantirish, bo‘g‘inlar va so‘zlani aniq talaffuz qilish, gaplani sintaktik jihatdan to‘g‘ri tuzish, narsalaning nomini to‘g‘ri aytish va mos fikr bildirishdan iboratdir. Pedagoglar bolalar bilan muloqot qilishda narsalar nomlarini va so‘zlarni buzmasdan, to‘g‘ri aytish, bolalarga talaffuzi qiyin bo‘lgan va nisbatan uzun so‘zlani aytishni mashq qildirish va buning uchun o‘yin uslubidan foydalanishlari zarur. Bolalar kattalar nutqini tushunishlari uchun ular so‘zlovchining yuzini va uning qo‘l harakatlarini ko‘rishlari, uning savollarini tushunishlari va to‘g‘ri javob berishlari darkor. Bolaga fikni ifodalash uchun ona tilining eng yaxshi shakllaridan foydalanishni o‘rgatish, bolalani ona tilining boyliklarini egallashga jalb qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.
2. Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’limni tubdan takomillshtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori”dan.
3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari -T:. 2018y. 3-iyul.
4. Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” Istiqlol.,15-bet.
5. Международний научно-обравазателной электроний журнал „Образавания у наука в XXИ веки”-„Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda muloqatni rivojlantirishda sharq allomalarning g‘oyalaridan foydalanish”05.05.2023 yil.

INTEGRATSIYALASHGAN MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA BOLALARNING KOMMUNIKATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Moxiraxon Muxtorova Ma’rufjon qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Maktabgacha ta’lim mutaxassisligi, 2-bosqich magistranti
Email: moxiramuxtorova55@gmail.com

Manzuraxon Muxtorova Ma’rufjon qizi
Namangan muxandislik texnologiya instituti o‘qituvchisi
Email: manzuramuxtorova1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadiqot, tajriba natijalarini keng joriy etish, mashg‘ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ sifatlarini oshirish to‘g‘risidagi kompetentsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, ta’lim, integratsiya, bolalar, kommunikativ, rivojlanish, innovatsiya.

Integratsiya so‘zining ma’nosini oladigan bo‘lsak, N.I.Kandakovning mantiqiy lug‘at-ma’lumotnomasida shunday talqin qilingan: “Integratsiya - har qanday qismlar, elementlarning yaxlitligi sifatida birlashishdir”. Falsafiy lug‘atda quyidagicha ta’rif berilgan: “Integratsiya – rivojlanish jarayonning bir tomoni. Oldin bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan qismlarga, elementlarga birlashish bilan bog‘liqdir.

Integratsiyalashgan mashg‘ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ sifatlarini rivojlantirish uchun bir qator maqsad va vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg‘ulotlar jarayonida kommunikanitiv sifatlarini rivojlantirish uchun musiqa mashg‘ulotlarini olsak quyidagi maqsadlarga erishamiz;

- Aqliy faoliyatlar bilan maqsadli ishlarni tashkil etish: taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, tahlil qilish, sintez qilish va boshqalar;
- predmetlaro aloqalarni va ularning turli masalalarni yechishda qo‘llaninishi ko‘rsatish.

Darhaqiqat, integratsiyalashgan musiqa mashg‘ulotlarida bolalar oson ishlaydi va kommunikativ sifatlari rivojlanadi. O‘zlashtirilagan bilim va ko‘nikmalar tarbiyalanuvchilar tomonidan namunaviy ta’lim sharoitlarida nafaqat amaliy

faoliyatida qo‘llanishi, balki ijodkorlikning hamda intelektual qobiliyatlarining namoyon bo‘lishiga yo‘l ochiladi.

Integratsiya – bu umumiy bilimlarning bitta o‘quv materialiga iloji boricha chuqur kirib borishi, birlashishdir.Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarda bolalarning kommunikativ sifatlarini rivojlantirishda ayrim qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bunda mashg‘ulotlarni tashkil etishda o‘xshash mavzularni aniqlash uchun birlashtirilishi kerak bo‘lgan fanlarning dasturlari ko‘rib chiqilishi kerak. Ular bir bo‘lishi shart emas, kommunikativ sifatlarini oshirish uchun integratsiyalshgan mashgulotlarni aniq bir maqsad asosida tashkil etish lozim. Buning uchun materiallarni yaxshiroq o‘zlashtirish lozim. Mashg‘ulotni ikki nafar tarbiyachi va musiqa o‘qituvchisi tashkil qilgan bo‘lsa, ularning mashg‘ulot ishlanmalarini tuzishga ajratilgan vaqtni inobatga olib tartib qoidalarga qat’iy rioya qilishi kerak. Qoida asosida mashg‘ulotni tashkil etishlarida jihozlarning joylashuvini to‘g‘ri tashkillashtirish muhimdir. Olindan kerakli tarqatma materiallar va ko‘rgazmali jihozlarini jadvallarga solish mashg‘ulotni samarali tashkil qilishga foyda beradi.

Integratsiyalashgan mashg‘ulotlar oddiy mashg‘ulotlardan farq qilishi lozim, bunda tarbiyachi va yordamchi tarbiyachi musiqa o‘qituvchisi bilan alohida yondashishi lozim. Integratsiyalashgan mashg‘ulotlar innovatsiyon texnologiyalardan foydalanib, har hil video-slayd hamda video roliklardan foydalanib faoliyat jaroyonida kommunikativ sifatlarini oshiramiz.

Integratsiyalashgan mashg‘lotlarda tarbiyachiga nima beradi? Avvalo, manaviy ozuqa oladi. O‘z ustida rivojlanish uchun izlanib o‘rganadi. Bolalar uchun qiziqarli mashg‘ulot tashkil etib musiqaga muhabbat shakllantiradi. Integratsiyalashgan ta’limda na mavzu, na tarbiyalanuvchilarning yosh toifalarini tartibga solish shart emas. Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni qiziqarli va tarbiyalanuvchilarga ijodiy muhit yaratish bevosita tarbiyachining kasbiy fidokorligiga bog‘liqdir.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasasida kechayotgan pedogogik jarayonda bolalar faoliyatini tashkil etishning turli xil shakllaridan foydalanib kelinmoqda. Mashg‘ulot, ekskursiya bolalar kichik-kichik guruhlari bilan o‘tkaziladi. Yashab turgan joy, tabiatni kuzatish yoki tabiat quchog‘ida mehnat qilishni kichik guruhlar bilan, yakka tartibda tashkil qilish samarali natija beradi. Jumladan, o‘rgatish jarayonida har xil usullardan foydalanish (ko‘rgazmali, amaliy, so‘zlashuv) maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bolalarga bilim va tarbiya berishda so‘zlashuv nutqiga (dialogik) o‘rgatish katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan so‘zlashish

bolalarning kundalik faoliyatlari va turli voqea-hodisalarni kuzatish natijasida hosil bo‘lgan tushunchalarni aniqlash va uni bir tizimga solishda eng zaruriy ish vazifasi hisoblanadi. Bolada so‘zlashuv nutqini shakllantirish-bu boshqalarning nutqini tinglash va tushunish, so‘zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so‘rashdir (savollar berish). Bola so‘zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi uning lug‘at boyligiga, tilning grammatik tomonini egallaganligiga bog‘liqdir. Bolani so‘zlashuv nutqiga o‘rgatish uning madaniy nutqni egallaganlik darajasiga ham bog‘liqdir.

Monologik nutqqa o‘rgatish. Bolalarni maktabga tayyorlashda monolog nutqni rivojlantirish juda muhimdir. Monologik nutq boladan o‘z fikrini tushunarli va izchil bayon qilishni talab etadi, bunday nutq turini esa bola 5 - 6 yoshda egallay boshlaydi. Chunki bu yoshda mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi, bolada katta so‘z boyligi to‘planadi, tilning grammatik qurilishini egallab oladi.

Kichik hajmdagi she’rlarni intonatsiyalarga rioya qilib yodlab olish va ta’sirchan qilib aytib berish va hokazo. Bola hikoya, she’r, ertak tinglayotganida quvonadi, huzurlanadi. Bu emotsional ta’sirlanish bolada badiiy adabiyotni estetik idrok etish, ya’ni uni san’at asari sifatida his etish qobiliyatining paydo bo‘lishiga, unda axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asar bilan tanishtirar ekan, har bir bolada kitobga nisbatan qiziqish va muhabbatni tarbiyalashi kerak.

Faolliyatda bolalarning kelajakka teran nigoh bilan boqishi, maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘zlariga aniq maqsad quyishida musiqa mashg‘lotida samarali ish olib boramiz. Zamonaviy bolalar kuy qo‘shiqlari bilan bir qatorda milliy va xalq og‘zaki ijodidan foydalanib sharqona ana’nalarimizni chiqur singdiramiz.

Fayoliyatning tashqi belgilariga asosida:

- Ma’ruza, suhbat, hikoya, kuylash, muommoni bartaraf etish,mashq qilish, kuy-qo‘shiq bilan ishash hamda kitob bilan ishlash.
Bilim manbasiga ko‘ra:

Vizual(plakatlar, ko‘rga’malar,tarqatmali materiallar namoyishi) multimediyali vositalardan foydalanish, multik,rolik tomosha qilishi.

Ta’limning murakkab shakllari:

Ochiq mashg‘ulotlar

Bolalar uchun bayramlar tashkil etish

Musiqa haftaligi va boshqalar.

Kichkintoylarning musiqsiy o‘quv va qobiliyatlari quyidagi faoliyatlardan iborat:

-musiqiy bilimi (musiqiy tovushlarni baland – pastligini his etish qobiliyati);

-temberni farqlay olishi;

- ritm tuyg‘usi(musiqaga mos harakat bajarish, qadam tashlab, chapak chalib musiqani xotirasida saqlab, his etish va ifodalash).

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan barcha musiqiy ta’limiy, tarbiyaviy ishlar yosh avlodga olijanob fazilatlarni bog‘cha yoshidan shakllantirishda nafosat tarbiyasining integratsiyalashgan kommunikativ sifatlarini oshirish uchun tarkibiy qismi hisoblanadi.

Musiqa mashg‘ulotlarning tuzulishi quyidagi faoliyat turlaridan iborat:

1.Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish.

2.Musiqa tinglash.

3.Musiqa savodi.

4.Qo‘shiq kuylash.

5.Bolalar musiqa cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lishi

Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarda bolalarga zamonaviy kuy-qo‘shiqlar bilan bir qatorda milliy qo‘shiqlar va xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘lab kommunikativ sifatlarini oshirib./, milliy ruhda tarbiyash. Mashg‘ulotlar jarayonida musiqa tinglab, multemediyadan foydalanib va ko‘rib turgan narsalarini idrok etib, kelajakka teran nigoh bilan boqish hamda o‘z vataniga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, shuningdek, dunyo musiqasini tinglash, raqslar ijro etib, ularning urf odatlari, ijtimoiy kelib chiqishi haqida boshlang‘ich ta’savvurga ega bo‘lishi maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining asosiy vazifasidir.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bola nutqining rivoji ko‘p jihatdan uning ruhiyatiga, sog‘lom, tetik o‘sishiga, axloqiy sifatlariga, o‘quv dasturini o‘zlashtirishda me’yorli bajarilishini ta’minlashshiga, qo‘llanmalarning monandligiga bog‘liqdir. Bu masalalar maktabgacha ta’limda o‘z yechimi ifodasini topishi va o‘z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur. Bolalarning aqliy jarayonini rivojlantirish uchun ularning nutqini o‘stirish zarur. Bola har bir so‘z manosini tushuna olishi, uni o‘z nutqida erkin ifodalashga muvofiq bo‘lishi kerak. Tushunchalar tizimiga moslashgan bola o‘z fikrini jamlab gapirishga va ifodalab berishga o‘rganadi.

Xulosa.

Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni tashkil etishda bolalarning kommunikativ sifatlarini rivojlantirishda biz tarbiyalanuvchilar alohida yondashib bolalarga chuqur bilim ko‘nikma berib borishimiz kerak. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning

og‘zaki nutqini rivojlantirish, atrofdagilar bilan nutqiy munosabatda bo‘lish malakasini shakllantirishdan iborat bo‘lib, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ona tilini o‘rgatish, nutqni rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o‘rgatish ishlarini tahlil qilish, turli yosh guruhlari uchun nutq o‘stirish mashg‘ulotlarining interfaol ishlanmalarini ishlab chiqish.Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida tevarak atrofni anglashi, ranglarni ajrata olishi va interfaol uslublarni qo‘llashi, ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish darajasi bilan bog‘liqligini inkor etib bo‘lmaydi. Pedagogik texnologiyani joriy qilishni innovatsiya jarayoni deb qarash mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyaning bolalar jamoasida muvaffaqiyatli joriy qilinishi va yaxshi samara berishi bir qator omillarga bog‘liq. Maktabgacha ta’lim muassalarida, o‘quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan davlatlar o‘quv sistemasidagi yangiliklar va yutuqlarni o‘rganish hamda ularni mamlakatimizda tatbiq etish hozirgi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni”. 2020-y. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazai (www.lex.uz), 2020 – yil 24 sentyabr“.

2. Omonullaev.D.Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa. -T.: O‘qituvchi,1980.

3. Meliboyev A.R., Zarmasov Sh.R., To‘raqulov L.T.Maktabgacha ta’lim jarayonini o‘qitishda innovatsiyon pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.

4.Qambarov. M.M. Pedagogika tarixi. -Toshkent: Bayoz, 2022.

5. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N.M., A’zamova N.M. Maktabgacha pedagogika.-Toshkent:Tafakkur, 2019.

6. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish. Migranova Ye.A., Pozilova Sh.X.-Toshkent:Tafakkur, 2018.

MAMLAKATIMIZDA BOJXONA QONUNCHILIGI

Sherzod Bobojonov Rustambekovich
Xorazm viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

Sultonboyeva Shahrizoda G‘ofurjon qizi,
Durdiboyeva Matluba Raximberganovna
Xorazm viloyati yuridik texnikumi o‘quvchilari

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquq sohasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan bojxona huquqi, yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, bojxona qonunchiligiga oid qonun hujjatlari va ulardagi yangiliklar, shuningdek, bojxona tizimi haqida ham batafsil so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: bojxona, qonunchilik, bojxona qonunchiligi, kodeks, tizim,soha, hujjat.

Annotation: In this article, customs law, which is considered one of the important directions of the legal field, to be more specific, the legal documents related to customs legislation and their innovations, as well as the customs system, are discussed in detail.

Key words: customs, legislation, customs legislation, code, system, sector, document.

Qonun va kodekslar davlatning har bir sohasini tartibga solib turuvchi muhim hujjatlardir. Darhaqiqat, barcha sohalar qatori bojxona tizimining ham o‘z qonunchiligi mavjud. Shu o‘rinda, bojxona tizimi haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Bojxona — chegara orqali o‘tadigan jami yuklarni, jumladan, bagaj va pochta jo‘natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasasi, o‘tkazilayotgan yuklarni tekshirish, tartibga solish va rasmiylashtirish, ulardan boj, soliq va yig‘imlar undirish bilan shug‘ullanadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartib-qoidalarning buzilishini oldini olish, ularga nisbatan choralar ko‘rish, surishtiruv va tezkor qidiruv ishlari olib borish, kontrabandaga qarshi kurashish ham bojxona vakolatiga kiradi. Bojxona postlari, odatda, dengiz va daryo portlarida, xalqaro aeroportlarda, temir yo‘l stansiyalari, chegara punktlarida joylashadi. Bojxona muassasalari tashqi savdoda mamlakat manfaati ta’minlanishini nazorat qiladi, qimmatbaho boyliklar (san’at

asarlari, nodir metallar va boshqalar)ning mamlakat hududidan olib chiqib ketilishining oldini oladi.

Dastlabki bojxona postlari savdogarlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun boj undirish maqsadlarida tashkil etilgan. Qadimgi Xitoyda ipak qurtini tashqariga olib chiqmaslikni bojxona xizmati qat’iy nazorat qilgan. Buyuk Britaniyada 1006-yildan boshlab orolga keltiriladigan har qanday yukdan "qirol haqi" undirilgan. Boltiq dengizini Jahon okeani bilan tutashtiradigan bo‘g‘ozdan o‘tganligi uchun olinadigan "zund boji" asrlar davomida Daniya qirolligi xazinasini boyitib kelgan. Savdo-sotiq erkinligi va xavfsizligini ta’minlashda bojxona muhim o‘rin tutgan, olib o‘tilayotgan tovarga maxsus belgi qo‘yilgan va bu tovardan boj olinganini ifoda etgan. O‘rta asrlarda karvon yo‘llarida, maxsus joylar (ko‘priklar, dovonlar hamda shahar tashqarisi va boshqalar)da savdo karvonlaridan boj oluvchi bojxonalar bo‘lgan.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, 1991-yil 24-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi tuzildi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni, bojxona ishini tartibga soluvchi qonunlar, me’yoriy hujjatlar qabul qilindi, ular xalqaro huquq me’yorlari bilan uyg‘unlashtirildi. 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Boj tarifi to‘g‘risida”, “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonunlari, 2016-yil 20-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Bojxona kodeksi qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Bojxona kodeksi 12 bo`lim, 59 bob va 412 moddadan iborat. Unda bojxona faoliyatiga doir tushunchalar aniq va tushunarli tarzda bayon etilgan: O`zbekiston Respublikasining bojxona hududi va chegarasi, bojxona maqsadlari, yuridik va jismoniy shaxslar, tovarning kuzatuv hujjatlari kabilarga to`liq izoh berilgan. Kodeksda tovarlarni va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o`tishga oid qoidalar o`rin olgan. Ularni bojxona chegarasi orqali olib o`tish shartlari, bu jarayonda talab etiladigan hujjatlar ro`yxati ko`rsatilgan. Demak, tovarlar va transport vositalari bojxona hududiga olib kirilayotganda, avtotransport vositasida xalqaro tashish chog`ida avtotransport vositasiga taalluqli, tovarga taalluqli hujjatlar talab etiladi. Bu suv, havo, temir yo`l transportida xalqaro tashish kabilarga ham taalluqli.

Yangi tahrirdagi Bojxona kodeksi kuchga kirishi O`zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligining yanada oshishiga xizmat qildi. Ichki bozorni sifatsiz va kontrabanda mahsulotlaridan himoya qilishning, xo`jalik yurituvchi sub`ektlar, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning jahon bozorlariga chiqishi uchun qo`shimcha qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida, barcha viloyatlarda, Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida va Toshkent shahrida bojxona xizmati boshqarmalari, qo‘shni davlatlar bilan chegara hududlaridagi magistral yo‘llarda shu boshqarmalarga qarashli bojxona postlari faoliyat ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizdagi barcha sohalar qatori bojxona tizimida ham soha rivojiga xizmat qiladigan yangiliklar amaliyotga joriy qilindi va ular bugungi kunda o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Bojxona qonunchiligi huquq sohasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligi qonuniylik, bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o‘tilganda shaxslarning teng huquqliligi, bojxona operatsiyalarining shaffof, aniq-ravshan va izchil amalga oshirilishi kabi prinsiplarga asoslanadi. Bojxona qonunchiligidagi bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar jismoniy shaxslar va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari foydasiga talqin qilinadi. Bojxona ishida bojxona organi tomonidan bojxona deklaratsiyasi ro‘yxatidan o‘tkazilgan va boshqa hujjatlar qabul qilingan kunda amalda bo‘lgan qonun hujjatlari qo‘llaniladi. Bojxona qonunchiligi orqaga qaytish kuchiga ega emas va qonunlar bilan boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, amalga kiritilgandan boshlab yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan yoki yengillashtiradigan bojxona to‘g‘risidagi qonun normalari orqaga qaytish kuchiga ega. Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, agar hujjatlarning o‘zida kechroq muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik bojxonaga oid huquqbuzarlik sodir etilgan kunda amalda bo‘lgan qonun hujjatlari asosida yuzaga keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, mamlakatimiz bojxona tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va qonunchilikdagi yangiliklar kelajakda soha rivojiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Bojxona qonunchiligidagi yangiliklardan xabardor bo‘lish esa hech birimiz uchun foydadan holi bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y.*
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. Божхона иши тарихи. Toshkent, 2015-yil.
4. buyuk ipak yo‘li davrida bojxona https://customs.uz/oz/lists/view/258

TA’LIM SOHASIDA O‘QITUVCHI VA OTA-ONA HAMKORLIGI

Feruza Babajanova Aminboyevna
Xalqaro Nordik Universiteti Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi
email:*feruza-babajanova@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’limda o‘qituvchi va ota-onalar hamkorligini yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarning oilasi bilan hamkorlikning maqsadlari,vazifalari va shartlari hamda dolzarbligi ota-onalar bilan birgalikdagi muloqotning faoliyati to‘g‘risida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Ota-onalar, maqsad, vazifalar, o‘qituvchi, an’anaviy shakllar, noan’anaviy shakllar, oila, maktab.

Аннотация: В этой статье рассматривается важность постанавления сотрудничества преподавателей с родителями, их цели, задачи, а так же условия в сфере обучения.

Ключевые слова: Родители, цель, задачи, преподаватель,традиционные и не традиционные формы,семья, школа.

Annotation: This article discusses the importance of establishing cooperation between teachers and parents, their goals objectives as well as conditions in the field of education system.

Key words: Parents, goal, tasks, teacher, traditional and nontraditional forms, family, school.

Kirish

Ta’lim tashkilotlarda o‘quvchilarning oilalari bilan hamkorligining maqsadlari, shartlari, vazifalari hamda dolzarbligi o‘zaro munosabatlarni tashkil etishning muhim tarkibiy qismidir. Ularning yutug‘i ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlik qilish shakllari va usullariga - ularning birgalikdagi muloqotini va faoliyatini tashkil etish usullariga bog‘liq. Hamkorlikning turli shakllari va usullarini tanlash maktab tomonidan amalga oshiriladi va ushbu bosqichda hal qilinishi kerak bo‘lgan muayyan vazifalarga, ota-onalarning qiziqishlari va intilishlariga, shuningdek, ushbu davrda jamiyatning rivojlanish darajasiga bog‘liq.

Ta’lim sohasida maktab va ota-ona hamkorligini O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-avgustda qabul qilingan qarorining 3-moddasida ta’lim tarbiya jarayoni ishtirokchilari–ta’lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari

yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagok xodimlar va ularnning vakillarini ishtirokida ta’lim sohasidagi maqsadlarni amalga oshirishda asosiy tayanch hisoblanadi.

Shu qonun asosida asosiy maqsadni ko‘rsatib o‘tmoqchiman.

Farzandlarimiz kelajakda bilimli, kreativ kadr bo‘lib yetishishi va hayotda o‘z o‘rinlarini topa olishlari uchun maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish va yaxshilash Zero, maktab va oila bolaning rivojida asosiy poydevor hisoblanadi.

Muammoning dolzarbligi hozirgi raqobatli, tezkor texnologiyalar rivojlanish davrida o‘quvchilarning bilim darajalarini oshirish, ularni oila va yurt kelajagi yoshlarning qo‘lida ekanligini his eta olishlaridir.

Maqsaddan kelib chiqqan holda jamoaviy hamkorlikning asosiy vazifa va shakllari quyidagilardan iborat:

-o‘quvchilar tarbiyasini oshirish;

-o‘quvchilarning psixologik holatini aniqlash ;

-o‘quvchilar salohiyatini oshirish;

-o‘quvchilarning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratish;

-ota-onalarning psixologok salohiyatini oshirish;

-ota-onalarning farzandlarini bilim olish jarayonida faol ishtirok etishi;

maktab miqyosida va sinfda ota-onalar yig‘ilishi;

maktab tadbirlari, konsertlar o‘tkazish;

ochiq kunlar (ota-onalar kuni); ota-onalar qo‘mitasining tematik konferensiyalarini tashkil etish va ular bilan yaqindan hamkorlik qilish;

ota-onalarning ijodiy guruhlari bilan ishlash, savol-javob kuni;

guruh maslahatlari;

ota-onalarni maktab ma’muriyati, pedagogik jamoa bilan uchrashish;

ota-onalar uchun ma’ruzalar;

seminarlar, treninglar; o‘quv filmlarini ko‘rish va keyingi muhokamalar;

ota-onalar maktablari.

Agar boshqa tasnifni ko‘rib chiqsak, umumiy ta’lim muassasasi va oila o‘rtasidagi hamkorlik shakllari an’anaviy va noan’anaviy bo‘linadi.

An’anaviy shakllar - bu barcha umumiy ta’lim muassasalari uchun umumiy bo‘lgan, yillar davomida sinovdan o‘tganlar.

Bunga quyidagilar kiradi:

ota-onalar yig‘ilishi;

ota-onalar uchun ma’ruzalar;

ota-onalar bilan pedagogik suhbatlar;
oilaviy tashriflar;
tadbirlarni birgalikda tashkil etish;
individual va guruh maslahatlari; ota-onalar bilan yozishmalar;
individual uchrashuvlar va boshqalar.

Hamkorlikning noan'anaviy shakllari oila bilan ishlashning zamonaviy shakllari bo‘lib, o‘qituvchilarga ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va o‘qitishda imkon qadar yordam berishga yordam beradi. Har bir ota-ona o‘qituvchini bolani har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan ishida qo‘llab-quvvatlashga intiladi. Ammo zamonaviy ota-onalar - bu paydo bo‘lgan muammolarni, mavjud vaziyatni tahlil qilishga qodir bo‘lgan bilimli odamlar, shuning uchun o‘qituvchi oila bilan hamkorlikning yangi shakllaridan foydalanishi kerak. Umumiy ta'lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi hamkorlikning ko‘plab shakllari mavjud. Belgilangan maqsadlarga erishish va yuqori natijalarga erishish uchun o‘qituvchi ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyatda turli xil hamkorlik shakllarini to‘g‘ri birlashtira olishi kerak. Har safar o‘qituvchilar tarkibi har bir oilaning xususiyatlarini hisobga olgan holda kerakli, samaraliroqlarini tanlashi kerak. Axir hamkorlikning asosiy maqsadi ota-onalar bilan ittifoqdosh bo‘lishdir.

Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun eng katta muammo - samarali muloqot qilishdir. Bu oddiy tuyulishi mumkin, lekin ko‘pincha suhbatlar uzilib qoladi, chunki o‘qituvchi maxsus ta'lim sohasiga xos bo‘lgan tilni ishlatadi va ota-ona uchun notanish bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar suhbat boshida ota-onalarga tegishli so‘z birikmalarini, masalan, turar joy va modifikatsiyani tushunishlariga ishonch hosil qilishlari muhimdir. Bu keyinchalik muammolarga olib kelishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos tushunmovchilik yo‘qligiga ishonch hosil qiladi.

O‘qituvchi ham ota-onani faol tinglashi kerak. Yechimlar va usullarga berilib ketish shunchalik osonki, o‘qituvchilar talaba uchun eng samarali bo‘lgan narsa haqida fikr-mulohazalarini o‘tkazib yuborishlari mumkin.

Hozirda ba'zi ota-onalarning maktabda o‘qituvchi tomonidan bolasiga berilgan dakki yoki tarbiyani tushunmay maktab ma'muriyatiga, o‘qituvchilarga turli tazyiq o‘tkazish holatlari uchrab turadi. Oddiy koyiganda ham uyiga aytib boradiganlari bor. Bu ishni qiladiganlarning o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan tushunchasi bor. Bu haqda gapirayotganda avvalambor xatoni o‘zimizdan ham izlashimiz kerak, ya'ni yuqorida aytganimday, qattiqqo‘llik bilan berilgan jazo – mantiqsizlik hisoblanadi. Qachonki ota-ona bolasining kelajagini o‘ylamoqchi ekan, o‘qituvchi bilan hamkorlik qilishi

lozim. Buning aksini qilib o‘qituvchiga bosim o‘tkazsa, bu sinfning umumiy holatiga ta'sir qiladi, boshqa bolalar bilan ham ishlolmay qoladi.

Oila - bolani ijtimoiylashtirish va tarbiyalashda hal qiluvchi omil. Oiladagi munosabatlarning ijtimoiy sohasi maktab ta’lim muhitiga zid bo‘lmasa, ta’lim muvaffaqiyatli bo‘ladi. Shuning uchun ota-onalar bilan ishlashning asosiy maqsadi oliy qadriyatlar insonga munosib hayotning asosi bo‘ladigan yagona ta'lim muhitini yaratishdir.

O‘qituvchining kasbiy ta’siri oilaning o‘zi va bolaning ota-onasi emas, balki oilaviy ta’limdir. Ota-onalar bilan muloqot muvaffaqiyatli bo‘ladi, agar sharoitlar, o‘qituvchining iltimoslari va maslahatlari ota-onalar tomonidan bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan, ularning xarakterini shakllantirishdan, qobiliyatlarni rivojlantirishdan kelib chiqadigan bo‘lsa, ota-onalar tomonidan qabul qilinadi.

Ota-onalar bilan ishlash quyidagilarga asoslanadi tamoyillari:

- ota-ona mehr-muhabbati va unga bo‘lgan hurmat tuyg‘usiga murojaat qilish;
- bolalarni xarakterlashda ijobiy baholashdan boshlash kerak;
- ota-onaning ota va ona sifatidagi shaxsiga, ularning ota-ona g‘amxo‘rligiga, mehnat va ijtimoiy faoliyatiga yuksak hurmat.

Agar ota-onalar maktabda bolalarning haqiqiy amaliy hayotiga qo‘shilsa, o‘z farzandlari bilan ma’lum bir qadriyat munosabatlarida yashasa, yagona ta’lim maydoni yaratiladi. Ayni paytda bola maktab va oila o‘rtasidagi chegaralarni ko‘rmaydi, balki faqat eng yuqori qadriyatlar umumiy xususiyatga ega bo‘lgan dunyoning ma’lum bir birligini ko‘radi.

Ta’lim san’atining o‘ziga xos xususiyati borki, u deyarli hamma uchun tanish va tushunarli bo‘lib tuyuladi, hatto boshqalar uchun ham oson narsa-bu qanchalik tushunarli va oson ko‘rinsa, inson u bilan nazariy yoki amaliy jihatdan kamroq tanish bo‘ladi. Ta’lim sabr-toqatni talab qilishini deyarli hamma biladi... lekin juda kam odam sabr-toqat, tug‘ma qobiliyat va mahoratdan tashqari, maxsus bilim ham kerak degan xulosaga kelgan.

Xulosa qilib, aytishimiz mumkinki, umumiy ta’lim muassasasi va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikning barcha shakllarining mazmuni o‘quvchilarning barkamol rivojlanishiga qaratilgan o‘zaro faol ta’lim ta’sirini yaratishdir. O‘qituvchilar va otaonalarning to‘g‘ri tashkil etilgan o‘zaro aloqasi bolani yaxshiroq tushunishga, oilada va maktabda shaxsiy ta’lim muammolarini hal qilishning eng maqbul usullarini topishga yordam beradi. O‘qituvchi esda tutishi kerakki, u foydalanadigan barcha shakllar bolalar, ota-onalar va maktab o‘rtasida ishonchli munosabatlarni

o‘rnatishga, ularni bir jamoaga birlashtirishga, ularning muammolarini bir-birlari bilan bo‘lishish va birgalikda hal qilish zarurligini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Oila va maktab hamkorligi maktab hayoti davomida davom etadigan uzluksiz jarayondir. Bu jarayonning davomiyligi ta’lim sohasida va yurtimiz ravnaqining poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonuni.
2. Babanskiy Y. K. «Pedagogika» M. 1988 yil.
3. Munavvarov A. K. «Pedagogika» Toshkent 1996 yil.
4. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation
5. on the stress-strain state of buildings. Acta of Turin Polytechnic University in
6. Tashkent, 11(1), 71-79.
7. Шаропов, Б. Х., Хакимов, С. Р., & Рахимова, С. (2021).
8. Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных
9. композиций. Матрица научного познания, (12-1), 115-123.

SOMONIYLAR NASR IBN AHMAD HUKMRONLIGI DAVRIDA

Dostonbek Boydedayev Xusniddin o‘g‘li
Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi
e-mail: boydedayevdostonbek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Movarounnahr hududida Arab xalifaligining ta’sir doirasi kamayishi munosabati bilan hukumatni qo‘lga olgan va yangi mustaqil davlatga asos solgan sulola- somoniylar sulolasining hukmdor sifatidagi ilk vakillaridan biri- Nasr ibn Ahmad haqida, uning davrida Movarounnahr o‘lkasidagi siyosiy jarayonlar va sodir bo‘lgan voqealar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Nasr ibn Ahmad, Somoniylar davlati, Tohiriylar davlati, Safforiylar davlati, Ismoil, Ahmad, Somonxudot, Arab xalifaligi, xalifa, Movarounnahr, Xuroson, Buxoro, Asad, Nuh, Yahyo, Ilyos, Farg‘ona.

Аннотация: Данная статья посвящена Насру ибн Ахмаду, одному из первых представителей династии Саманидов, который взял на себя управление и основал новое независимое государство в связи с упадком влияния Арабского халифата в регионе Моваруннахр, политическими процессами. в регионе Моваруннахр в свое время и рассказывает о произошедших событиях.

Ключевые слова: Наср ибн Ахмад, государство Саманидов, государство Тахири, государство Саффари, Исмаил, Ахмед, Саманхудат, Арабский халифат, халиф, Моваруннахр, Хорасан, Бухара, Низамулмульк, Асад, Нух, Яхья, Ильяс, Фергана.

Annotation: This article is about Nasr ibn Ahmad, one of the first representatives of the Samanid dynasty, who took over the government and founded a new independent state due to the decline of the influence of the Arab caliphate in the Mowarunnahr region, the political processes in the Mowarunnahr region during his time and it talks about the events that happened.

Key words: Nasr ibn Ahmad, the Samanid state, the Tahiri state, the Saffari state, Ismail, Ahmed, Samankhudat, the Arab caliphate, the caliph, Movarounnahr, Khurasan, Bukhara, Nizamulmulk, Asad, Nuh, Yahya, Ilyas, Ferghana.

Kirish: IX asrning ikkinchi yarmiga kelganda Movarounnahr va Xuroson Arab xalifaligining siyosiy ta’siridan deyarli qutulgan edi. Bundan tashqari, o‘tgan davr mobaynida Tohiriylar hamda Safforiylar davlatlari tashkil topib, nisbatan gullab-yashnagan hamda milliy davlatchiligimiz tarixida katta o‘rin tutgan edilar. Ularning

nisbatan zaiflashuvi jarayoni Movarounnahr va Xuroson o‘lkasida yangi davlat kurtaklari paydo bo‘layotgan davrlarga to‘g‘ri keldi hamda yangi shakllanayotgan davlat asta-sekin mintaqada yakkahokimlikni qo‘lga kiritib bordi. Ushbu davlat Somoniylar davlati edi.

Asosiy qism: Bu sulolaga Balx yaqinidagi Somon qishlog‘i oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos solishgan. Somonxudot al-Ma’mun xizmatida bo‘lgan. Uning o‘g‘li Asad ham Ma’munga sodiq xizmat qilgan. Natijada Asadning o‘g‘illariga 819-yilda bir nechta hudud bo‘lib berilgan. Nuh Samarqandni, Ahmad Farg‘onani, Yahyo Shosh va Ustrushonani, Ilyos Hirotni boshqara boshlaydi[1]. Bevosita somoniylarni dastavval Nuh, undan so‘ng Farg‘ona hududining egasi Ahmad boshqaradi. Bu hukmdorlarning har biri o‘z nomidan mis chaqalar zarb etadi[2].

Bu orada 865-yilda somoniylar hukmdori Ahmad vafot etadi. Taxtni esa uning o‘g‘li, ushbu maqolada asosiy o‘rin tutadigan shaxs- Nasr egallaydi hamda Samarqandni markazga aylantiradi[3]. Ana endi Nasr ibn Ahmadning hukmdorlik faoliyatiga chuqurroq to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz.

Nasr ibn Ahmad, Nasr I ibn Asad Somoniy (taxminan 848-893-yillar)-somoniylar sulolasi boshlig‘i, 865-892-yillar oralig‘ida Samarqand hokimi sifatida ham faoliyat olib borgan[4]. Ma’lumotlarga ko‘ra, Nasr ibn Ahmad Norin daryosi bo‘yidagi Haylam qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi Ahmad 865-yilda vafot etgach, taxt vorisi sifatida Nasr katta sahnaga chiqadi, chunki ushbu davr qonuniyatlariga ko‘ra taxt vorisligida asosan mayorat tizimidan foydalanilardi. Ya’ni taxt otadan bolaga meros shaklida o‘tib, bu meros mayorat tizimiga ko‘ra katta o‘g‘ilga tegishli bo‘lar edi. Shunga ko‘ra Nasr ibn Ahmad somoniylar taxtini egalladi.

Nasr ibn Ahmad hokimiyatda bo‘lib turgan dastlabki yillarda yangidan shakllanib kelayotgan yosh davlat hali to‘laligicha mustaqil emas edi. Bu paytda tohiriylarning siyosiy nufuzi ancha baland edi. Lekin shunday holatda ham Nasr somoniylar rivoji uchun qator islohotlarni amalga oshiradi. Jumladan, uning taxtga kelganidan so‘ng qilgan birinchi ishi o‘z hukmi ostidagi hududlarning markazi sifatida Samarqandni belgilashi bo‘ladi[5]. Samarqandning markaz sifatidagi nufuzi mustahkamlanganidan so‘ng Nasr ibn Ahmad navbatdagi islohotlarni boshlaydi. Bu safar Nasr Buxoro vohasi, hozirgi Qashqadaryo hududiga tegishli bo‘lgan Naxshab, hozirgi Surxondaryo hududida joylashgan Chag‘onrud vodiylaridan tashqari Movarounnahrning barcha hududlarini yagona markaz ostida birlashtirish hamda bu orqali Movarounnahr hududlarini Xurosonning ta’sir doirasidan xalos qilish choralarini ko‘radi. Bu yo‘lda u davlat rahbari o‘laroq bir nechta sa’y-harakatlarni

amalga oshiradi va bu harakatlar ma’lum vaqt o‘tishi bilan o‘zining ijobiy natijalarini bera boshlaydi.

Albatta, Nasr ibn Ahmad amalga oshirgan islohotlari samara berishiga uning hukmronligi davrida yuzaga kelgan qulay siyosiy sharoit ham sabab bo‘ladi. Ya’ni bu davrga kelib Tohiriylar davlati barham topishi bilan Movarounnahr o‘lkasidagi siyosiy jarayonlar tubdan o‘zgarib ketadi. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi ortidan mustaqillik uchun harakatga keladigan ayrim siyosiy guruhlar shakllanadi. O‘z davrining siyosiy jarayoni va sharoitlaridan yaxshi xabardor bo‘lgan hamda katta salohiyat egasi bo‘lgan Nasr yuzaga kelgan qulay sharoitdan foydalanib qolish kerakligini yaxshi anglar edi.

Bundan tashqari, bu davrga kelganda markaz tomonidan ayrim qiyinchiliklarga duchor qilingan hamda o‘z holiga tashlab qo‘yilgan Buxoro shahri ortiq safforiylarga tobe bo‘lish fikridan qaytishadi hamda bundan buyon ularga itoat etmasliklarini ochiq-oydin e’lon qilib, somoniylarga murojaat qilishadi. Murojaat mazmuniga ko‘ra, Buxoro zodagonlari tomonidan yuborilgan elchi Nasrdan Buxoro hududini o‘z qo‘l ostiga olishini hamda somoniylar xonadonidan bir kishini Buxoroga hokim sifatida yuborishini so‘raydi. Tabiiyki, o‘z hukumatini mustahkamlash hamda siyosiy ta’sirini orttirish ustida ishlayotgan Nasrga ushbu taklif juda ham qo‘l keladi, shuning uchun ham u bu taklifni qabul qiladi hamda 874-yilda Buxoroga ukasi Ismoilni hokim qilib yuboradi.

Buxoroni osonlik bilan o‘z ta’sir doirasiga kiritib olgan Nasr endi rasmiy ravishda mustaqillik uchun qadam tashlash payti kelganligini tushunib yetadi. Shu maqsadda u 875-yilda o‘zini butun Movarounnahrning hukmdori deb e’tirof etadi hamda o‘z nomidan kumush dirhamlar zarb ettira boshlaydi. Bunga qadar kumush dirhamlar zarb etish huquqi faqatgina tohiriylarga tegishli bo‘lib[6], Somonxudot avlodlari yuqorida aytib o‘tganimizdek, mis chaqalar zarb ettirishardi. Nasr nomidan zarb etiladigan kumush tangalar hukmdorlik ramzi bo‘lib, somoniylarning o‘z davlatchiliklarini shakllantirish yo‘lida katta va asosiy odimlardan biri hisoblanadi.

Bu davrga kelib og‘ir soliqlar, ko‘chmanchilar hujumi hamda xalifalik hukmronligidan charchagan oddiy xalq vakillari ham markazlashgan mustaqil davlat tarafdori edi. Albatta, bu omil ham Nasrning harakatlariga katta turtki bo‘lib xizmat qilgan. Buxoro somoniylar qo‘l ostiga o‘tishi bilan Nasr 875-yilda xalifa Mu’tamiddan butun Movarounnahrni boshqarish haqidagi yorliqni oladi.

Bir qancha vaqt davomida Nasrga erkin harakat qilish uchun hech qanday to‘siq bo‘lmagani va qulay siyosiy jarayonlar tufayli davlat boshqaruvida katta yutuqlarga erishayotgan edi. Lekin ukasi Ismoilning Buxorodagi faoliyati Nasrning

keyingi taqdiriga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi. Buxoroga noib sifatida jo‘natilganiga qaramay Ismoil bu hududda mustahkam o‘rnashib, o‘zi uchun tarafdor guruh shakllantirib olgach, akasiga qarshi ochiqdan ochiq norozilik yo‘lini tutdi. Dastlabki norozilik belgisi Samarqandga har yili yuborib turiladigan soliqlarni Ismoil bundan buyon yubormay qo‘yishi edi. Natijada aka-ukalar o‘rtasiga sovuqchilik tushadi hamda ushbu holat borgan sari jiddiy tus olib boradi. Bundan keyin aka-ukalar o‘rtasidagi muammoni hal etishning birdan bir yo‘li urush ekanligi tobora aniqlashib borayotgan edi. Oxir-oqibat mana shunday urush sodir bo‘ldi ham.

Nasr va Ismoil o‘rtasida 2 marta yirik to‘qnashuv bo‘ldi. Bu to‘qnashuvlarning birinchisi 886-yilda yuz berdi va unda mag‘lubiyatni qabul qilib olgan Ismoil vaqtinchalik Buxoro noibligidan chetlashtirildi[7]. Lekin Ismoil tezroq hokimiyatni qaytarib olish maqsadida 2- yurishni tashkillashtirdi. Bu voqea 888-yilda sodir bo‘ldi. Bu safar Ismoilning qo‘li baland keladi va Nasrdan hokimiyatni tortib oladi. Lekin Nasrni o‘ldirmaydi va davlat to‘liq Ismoil qo‘lida bo‘lsa-da, odob yuzasidan akasini hukmdor sifatidagi mavqeyini rasmiyatchilik uchun saqlab qoladi. Bu jarayon 892-yilda Nasr vafot etguncha davom etadi.

Ismoil o‘zi 14 yoshida otasi Ahmad vafot etib, akasi Nasrning qo‘lida tarbiya ko‘rgan edi[8]. Lekin shunga qaramasdan akasining hokimiyatiga yakuniy nuqtani ham Ismoil qo‘ydi.

Xulosa: Ushbu maqola orqali ko‘rdikki, Nasr o‘z davrining anchayin salohiyatli hukmdorlaridan hisoblangan. Chunki aynan u tomonidan amalga oshirilgan qator mustaqil davlatchilikka oid siyosiy harakatlar Somoniylar davlatining keyingi taraqqiyoti hamda buyuk davlat sifatida gurkirashida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qildi. To‘g‘ri, u hukmdor sifatidagi qudrati tomonlama qaralganda Ismoil Somoniy bilan tenglasha olmasdir, lekin Ismoil Somoniyning buyuk ishlari uchun ham aynan akasi Nasr poydevor qo‘ydi, o‘z davrining siyosiy jarayonlaridan foydalanib, o‘zidan keyingi hukmdor uchun nisbatan mustaqil siyosat yuritish imkoniga ega bo‘lgan davlatni meros qilib qoldirdi. Agar u o‘z vaqtida davr sharoitlaridan oqilona foydalanib qolmaganida undan keyin taxtga kelgan Ismoil Somoniy tarixda qolgan ishlarining ayrimlarini bajarishga ulgurmagan bo‘lishi mumkin edi. Bu taraflama olib qaraganda Nasr ibn Ahmadning milliy tariximiz oldidagi xizmatlari juda ham katta.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи: (Энг кадимги даврдан Россия боскинига кадар). – Т.: Шарк, 2001. –Б. 92.

2. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha). –T.: Sharq, 2017. –B. 45.

3. Sagdullayev A. O‘zbekiston tarixi. –T.: VNESHINVESTPROM, 2019. –B. 351-353.

4. O‘roqov D., Sharopov A. O‘zbekiston tarixidan universal qo‘llanma. –T.: Akademnashr, 2013. –B. 54.

5. Boydedayev D. X. Buxoro faxri- Ismoil Somoniy // Yangi O‘zbekistonning umidli yoshlari. -2022. -№1. –B. 32.

6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=VlnC1uAAAAAJ&citation_for_view=VlnC1uAAAAAJ:2osOgNQ5qMEC. 10.12.2023.

7. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Nasr_Ibn_Ahmad. 10.12.2023.

8. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/uzbekiston-hukmdorlari/nasr-i-ibn-ahmad. 10.12.2023.

9. https://qomus.info/oz/encyclopedia/n/nasr-ibn-ahmad/. 10.12.2023.

CONTENTS

No	Authors and topics of the article	Pages
1	Islombek Abduganiyev Ilkhomjon ugli IMPROVING GOVERNMENT PROCUREMENT: STRATEGIES AND RECOMMENDATIONS	4
2	Малохат Балтабаева Ортикалиевна ЗАНЯТОЕ НАСЕЛЕНИЕ - ЗДОРОВОЕ НАСЕЛЕНИЕ - ЗДОРОВОЕ ОБЩЕСТВО	12
3	Alixanov Olimjon Odiljon o‘g‘li Umrzakov Sherali Kasimovich KOMBINATORIKA ELEMENTLARI MAVZUSIGA DOIR KELTIRILGAN BA’ZI MASALALAR VA ULARNI YECHISH	18
4	Madina Odiljon qizi Yusufova Uchqun O‘roqov Yunusovich DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISHDA ELEKTRON SAVDOLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI HAMDA IMKONIYATLARI	24
5	Mastura Mamashayeva Mamasoliyevna PEDAGOGIK MULOQOT	30
6	Nurali Munirov Alisherovich SPORTDA QOBILIYAT VA IQTIDORNI O‘RGANISHNING TIZIMLI YONDASHUVI	35
7	Dilshoda Qodirova Abdunabiyevna VARIATSION QATOR TUZISH	43
8	Каршиева Б.Ф. ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ДВУЯЗЫЧНОГО ЛЕКСИКОНА В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТА ТЕХНИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ	50
9	Gulxayo Samandarova Abdukarim qizi	54

	XOTIN-QIZLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH, HIMOYALASH MEXANIZMINI KUCHAYTIRISHGA QARATILGAN MUHIM QADAMLAR	
10	**Gulshanoy Turgunboyeva Ravshanbek kizi METHODS TO INCREASE THE VOCABULARY OF 7TH GRADE STUDENTS USING SHORT STORIES**	62
11	**Zuxra Xalilova G‘ulom qizi Gulnoza Zokirova Shuxratovna TASVIRIY VA AMALIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA O‘QITUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI**	66
12	**Bashorat Qudratova O‘ktamovna Zulfiya Azizova Ruziyevna O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK VA KOMMUNIKATIVQOBILIYATLAR**	70
13	**Zulxumor Ko‘chkinova Shohobiddin qizi STRESS VA STRESSGA BARQARORLIK MUAMMOSINING XORIJ PSIXOLOGIYASIDA O‘RGANILGANLIGINING ILMIY NAZARIY TAHLILI**	74
14	**Sevara Abduxakimova Sherali qizi MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYALANUVCHILARDA KOMMUNIKATSIYA KO‘NIKMALARINI SHAKILLANTIRSHDA SHARQ ALLOMLARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARIDAN FOYDALANISH**	79
15	**Moxiraxon Muxtorova Ma’rufjon qizi Manzuraxon Muxtorova Ma’rufjon qizi INTEGRATSIYALASHGAN MASHG‘ULOTLAR**	84

	JARAYONIDA BOLALARNING KOMMUNIKATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH	
16	**Sherzod Bobojonov Rustambekovich Sultonboyeva Shahrizoda G‘ofurjon qizi Durdiboyeva Matluba Raximberganovna MAMLAKATIMIZDA BOJXONA QONUNCHILIGI**	89
17	**Feruza Babajanova Aminboyevna TA’LIM SOHASIDA O‘QITUVCHI VA OTA-ONA HAMKORLIGI**	92
18	**Dostonbek Boydedayev Xusniddin o‘g‘li SOMONIYLAR NASR IBN AHMAD HUKMRONLIGI DAVRIDA**	97

ESLATMA!
“SCIENCE SHINE” xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan ma’lumotlar va dalillarni haqqoniy va keltirilgan iqtiboslarni to‘g‘riligi hamda aniqligi uchun shaxsan mualliflar javobgardirlar!

NOTE!
The authors are personally responsible for the truthfulness of the information and evidence included in the international scientific journal "SCIENCE SHINE" and the correctness and accuracy of the quotations!

International scientific journal
SCIENCE SHINE

Issue 11
30. 12. 2023

©Jurnal hajmi: 105 bet.
©Farg‘ona viloyati, O‘zbekiston Respublikasi
©http://science-shine.uz/